

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**M U S I Q A**  
**P S I X O L O G I Y A S I**

«Musiq» nashriyoti  
TOSHKENT  
2005

*Mazkur o'quv qo'llanma oliy musiqa ta'limi Davlat standartlari va «Musiqasi psixologiyasi» kursining o'quv dasturi asosida O'zbekiston davlat konservatoriyasi magistratura bosqichi uchun tayyorlangan.*

**Musiqasi psixologiyasi (ma'ruzalar kursi): O'quv qo'llanma G'** Tuzuvchi-muallif **R.G'.QODIROV**. - T.: Musiqasi, 2005. -80 bet.

Mas'ul muharrir: san'atshunoslik fanlari nomzodi,  
professor **R.YU.YUNUSOV**

Taqrizchilar: san'atshunoslik fanlari doktori,  
professor **F.M.KAROMATLI**

psixologiya fanlari doktori,  
professor **E.G'.G'OZIEV**

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

© O'zbekiston davlat konservatoriyasining «Musiqasi» nashriyoti, 2005y.

## KIRISH

O'zbekiston davlat konservatoriyasida «Musiqqa psixolo-giyasi» ma'ruzalar kursi umumiy psixologiya kursining davomi bo'lib, magistratura talabalari, shuningdek, aspirant va assistent-stajyorlar uchun joriy etilgan. Umumiy psixologiyada nisbatan ko'p uchrovchi tushunchalar: faoliyat, bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy muhit, shaxsiyatdagi individual xususiyatlar mazkur qo'llanmaning qurilish mavzu materiali tizimiga asos sifatida qabul qilingan. Ma'ruzalar matni yakunida bo'lajak musiqachilarning individual va kasbiy malakasini aniqlashga oid psixologik testlar hamda tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati berilgan. Keltirilgan adabiyotlar ro'yxatida musiqqa psixologiyasi bo'yicha mavjud bibliografiya aks ettirilgan. Mazkur ma'ruzalar matniga V.I.Petrushinning «Muzo'kal'naya psixologiya» («Musiqqa psixologiyasi») va A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» o'quv qo'llanmalari asos bo'lib xizmat qildi. BuYuk musiqachilar hayoti, ijodi va fikrlaridan keltirilgan misollar o'quv materialining o'zlashtirilishini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Psixologik ta'lim bo'lajak mutaxassisga musiqqa san'atining psixologiyaning nozik jihatlari va musiqqa pedagogikasi borasida bilim olishga yordam beradi. Bo'lajak bastakor, ijrochi, musiqashunos, pedagog insonning ichki kechinmalari, uning o'y va intilishlari, tahliliy hisob-kitob va tasavvurlar parvozi, musiqiy asar ustida ishlash va uning konsertdagi ijrosi, iroda va xotira, xarakter va qobiliyat, shuningdek, musiqachi va tinglovchi shaxsiyatining boshqa psixologik sifatlarini yaxshi bilishi va etarlicha aniq tasavvur eta olishi kerak.

Musiqqa psixologiyasi – psixologiyaning shunday sohasiki, u musiqaviy eshitish qobiliyati, eshitish sezgisining chegaralari, musiqaning lad, ritmikasini his qilish, sozni taktitl (paypaslab) sezish, musiqaning anglanishi, yodda saqlanishi, ijro etilishi va undan bahramand bo'lish kabi masalani qamrab oladi. Musiqiy iste'dod va zakovat o'zining cheksiz imkoniyatlari, mo'jizaviy tabiati bilan bizni hayratga soladi va maftun etadi.

Musiqqa psixologiyasi sohasidagi asosiy tadqiqotlar quyidagilardan iborat: Teplov B.M. «Psixologiya muzo'kal'no'x sposobnostey» («Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi»), Nazaykinskiy E.V. «O psixologii muzo'kal'nogo vospriyatiya» («Musiqiy idrok psixologiyasi haqida») va boshqalar. Bolalardagi musiqqa psixologiyasi haqida – Beloborodova V.K., Rigina G.S., Aliev YU.B. «Muzo'kal'noe vospriyatie shkol'nikov» («Maktab o'quvchilarining musiqiy idroki»), Rinkyavichus Z.A. «VosprinimaYut li deti polifoniYu?» («Bolalar polifoniyani idrok etishadimi?») va boshqalar.

Mazkur mualliflar I.M.Sechenovning «Reflekso' golovnogo mozga» («Bosh miya refleklari»), G.Gel'mgol'sning «Uchenie o sluxovo'x ohuheniyax kak fiziologicheskaya osnova teorii muzo'ki» (Musiqqa nazariyasining fiziologik asosi bo'lgan eshitish sezgisi haqidagi ta'limot), S.M.Maykaparning «Muzo'kal'no'y slux, ego znachenie, priroda, osobennosti i metodika pravil'nogo razvitiya» («Musiqiy eshitish qobiliyati, uning ahamiyati, tabiati, xususiyatlari, to'g'ri rivojlantirish va metodikasi»), E.Jak-Dal'krozning «Ritm: ego vospitatel'noe znachenie dlya jizni i dlya iskusstva» («Ritm: uning hayot va san'at uchun tarbiyaviy ahamiyati»), N.A.Garbuovning «Zonnaya priroda muzo'kal'nogo sluxa» («Musiqiy eshitish qobiliyatining zonaviy tabiati») kabi yirik psixofiziologik, akustik va pedagogik tadqiqotlarga suyanishgan.

O'rta asrlardayoq SHarqning buYuk mutaffakkirlari musiqiy psixologiya, musiqaning qalbga, kayfiyatga va inson organizmiga ta'siri masalalarini o'rganishgan: Forobiyning «Musiqqa haqida katta kitob»i va boshqa asarlari, Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo», «Kitob an-najot», «Donishnoma» kabi asarlarining musiqqa haqidagi bo'limlari, Abdurahmon Jomiyning «Risolai musiqqa» kitobi shular qatorida turadi.

Musiqqa psixologiyasi haqidagi yanada qadimiyroq ta'limotlar Qadimgi Misr, 2indiston, Xitoy olimlari, zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da bayon etilgan. Pifagorning *evritmiya*, Arastuning *mimesis* ta'limotlari shular jumlasidan. Ular musiqaning inson ongi, shaxsiga, umuman, jamiyat rivojiga ulkan ta'sirini ta'kidlab o'tishgan. Masalan, Aflotun

«davlatning qudrati unda qanday musiqa, qaysi lad va qay ritmda yangrayotganligigiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq», – degan.

BuYuk musiqachilar – Mosart, Betxoven, SHopen, List, CHaykovskiy, Rimskiy-Korsakov, Raxmaninov, Skryabin, Toscanini, CHurlyonis, o‘zbek musiqa ijrochilari, bastakor va kompozitorlari – YUnus Rajabiy, Mutal Burxonov, Mirsodiq Tojiev va boshqalar hayotidagi misollar musiqa yaratish, ijro etish va tinglash jarayonida inson qanday psixologik xususiyatlarga, hayratlanarli imkoniyatlarga egaligini yaqqol ko‘rsatadi. Mana, ayrim misollar: YUnus Rajabiy o‘zining ko‘p jildlik «O‘zbek xalq musiqasi», «SHashmaqom» to‘plamlaridagi deyarli barcha qo‘shiq va kuylarni yoddan yozgan. Mirsodiq Tojiev ajoyib simfoniyachi kompozitor bo‘lgan, shu bilan bir qatorda u xalq kuylari va mumtoz musiqani puxta o‘zlashtirgan edi. U juda ko‘p maqom yo‘llarini yoddan bilgan. 2atto kekxa xonandalar ham unga biror maqomni aytib berishini iltimos qilib murojaat qilar va keyinchalik ularni o‘z konsert dasturlariga kiritishar edi.

BuYuk qomusiy olim, musiqa cholg‘ularini mohirlik bilan chalgan Abu Nasr Forobiy o‘z ijrosi bilan kishilarni quvontirish yoki qayg‘uga solish, ovutish yoki chuqur o‘y surishga majbur qilish, xursand qilish, hayratga solish va hatto uxlatib qo‘yishning uddasidan chiqa olganligi haqidagi hikoyat va rivoyatlar bizgacha etib kelgan. Bu nima? Ijrochining mahoratimi? SHaxsiyat xususiyatlarining ta‘sirimi? Musiqaning inson ongiga ta‘sirimi? Professional musiqachi, mutaxassis musiqa psixologiyasidagi bu va boshqa jihatlarni etarli darajada o‘zlashtirib olishi kerak. Bu musiqiy tovushlar, obrazlar, tafakkur va hissiyotlar dunyosi kishi ruhini ko‘taradi, uni borliq bilan birlashtiradi, gohida tasavvurlar, xayollarning tushuntirib bo‘lmas imkoniyatlarini ochadi, dunyoning cheksiz kengliklariga olib ketadi, haqiqatga, idealga yaqinlashtiradi, hayotimizni ma‘noli, mazmunli, ma‘naviy boy va go‘zal qiladi.

Musiqa psixologiyasi fanini o‘zlashtirishni umumiy psixologiyadagi atama va tushunchalarni bilib olishdan boshlash maqsadga muvofiq. Mazkur tayanch bilimlar tarmoq soha hisoblanadigan va ayni paytda mustaqil fan – musiqa psixologiyasini o‘rganishda boshlang‘ich nuqta va ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quv qo‘llanmaning har bir bo‘limi va katta mavzularini ko‘rib chiqqach, ularni mustahkam va chuqur o‘zlashtirish uchun seminar mashg‘ulotlari o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

## MUSIQA PSIXOLOGIYASINING UMUMIY ASOSLARI

### Umumpsixologik atama va tushunchalar

- *Psixologiya* – psixikaning rivojlanishi va faoliyat qonunlari haqidagi fan.
- «*Psixologiya*» (Yun.) – «psixo», «psYuxe» (ruh, jon); «logiya», «logos» (ta'limot, fan).
- Psixika omillari, qonuniyatlari, mexanizmlari psixologiya fani *predmeti* hisoblanadi.
- *Psixologiya tarmoqlari* – umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi, pedagogik, ijod, san'at, musiqa psixologiyasi, psixofizika, psixofiziologiya, parapsixologiya, psixiatriya, ijtimoiy, etnik, tibbiy, kosmik psixologiya va boshqalar.
- *Asosiy psixologik atamalar* – ruh, ong, sezgi, diqqat, idrok, xotira, tafakkur, xayol, iroda, his, tuyg'u, temperament, xarakter, qobiliyat.
- *Ruh, jon, qalb* – inson ichki dunyosini ifodalovchi tushunchalar.
- *Ong* – voqelikning inson tafakkuridagi aksining eng Yuqori darajasi.
- *Sezgi* – narsa va hodisalarni sezgi a'zolari orqali his qilishning oddiy psixik jarayoni.
- *Diqqat* – ma'lum paytda faoliyatning bir narsaga qaratilganligi.
- *Idrok* – narsa va hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri orqali tafakkurda aks etishi.
- *Xotira* – eslab qolish, to'plangan tajribaning saqlanishi va tiklanishi.
- *Tafakkur* – bilish jarayonining ob'ektiv borliq, voqelikning inson ongida aks etishining oliy darajasi.
- *Xayol yoki fantaziya* – yangilik yaratuvchi kishining ruhiy, ijodiy faoliyati unsuri.
- *Iroda* – maqsadga erishish yo'lida qiyinchiliklarni engib o'tishga qaratilgan faoliyat.
- *2is-tuyg'ular* – bo'layotgan hodisalar tufayli tug'ilgan ichki kechinmalar.
- *Temperament* – psixikaning dinamik namoyon bo'lishiga bog'liq individual xususiyat.
- *Xarakter* – (xos xususiyat, belgi) – biror narsaga nisbatan munosabat jarayonida namoyon bo'luvchi individual xususiyat.
- *Qobiliyat* – ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sub'ektiv omili hisoblanuvchi shaxsning individual xususiyati.

### Musiqa psixologiyasi tarixidan

Musiqa psixologiyasi juda qadim davrlardan buyon o'rganib kelinmoqda. Musiqa psixologiyasi bo'yicha ilk izlanishlar kurtaklarini antik davr faylasuflari asarlarida ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, Pifagor (er. avv. VI asr) asarlarida, uning *evritmiya* ta'limotida shu haqda gap boradi. Evritmiya deganda olim insonning barcha hayotiy hodisalardan munosib ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan. Ijtimoiy hayotni ladga, orkestrga qiyoslash Pifagordan qolgan. Bu orkestrda har bir ijrochi ma'lum bir cholg'uni chalganidek, hayotda har bir insonning o'z vazifasi bor. Pifagor kuy va ritm inson qalbiga muayyan ta'sir ko'rsatishini ham aniqlagan. Umidsizlik, ruhiy iztiroblar, asabiylashish, g'azab va boshqa noxushliklarga qarshi musiqa farq qilingan.

Boshqa bir Yunon faylasufi Platonning (er. avv. V asr) fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Platon va uning izdoshlari davlat uchun insonni Yuksaklikka ko'tarishga yordam beruvchi musiqa kerak deb hisoblaganlar.

Aristotel' (er. avv. IV asr) ham musiqani individning ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashish vositasi deb hisoblagan. Aristotel' insonning ichki olami va unga san'at yordamida ta'sir

o'tkazish usullarini ochib bergan *mimesis* ta'limotini ishlab chiqdi. Mimesis nazariyasida «*katarsis*» konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, qadim Yunon tragediyalari tomoshabin ko'nglini xastalik jazavalaridan tozalagan. CHuqur kechinmalar jarayonida inson ruhan poklanadi, uning qalbi o'zining xususiyligi, yagonaligidan umumiylikka ko'tariladi.

Aristotel' psixikani o'zgartiradigan musiqiy lادلarni batafsil tasvirlab bergan. Bir laddagi musiqa kishini rahmdil va muloyim qilib qo'yadi, boshqa biri esa asabiylashish yoki hayajonlanishga olib kelishi mumkin. SHunday qilib, doriy, frigi, lidiy lادلaridagi musiqa kishining ruhi va sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, boshqa lادلarda yozilgan musiqani esa yosh avlod qulog'iga etkazmaslik tavsiya etilgan. SHunday tavsiyalar musiqa cholg'ulari bo'yicha ham ishlab chiqilgan.

Qadimgi Yunonlar savodsiz odamni «axareutos» deyishgan, bu kuylash, raqs tushish, cholg'u chalishni, demakki, «xorey»da ishtirok etishga yaroqsiz bo'lgan odamni anglatgan. Qadimgi YUnoniston shahridagi aholini yaxlit birlashtiruvchi musiqiy-xoreografik harakat «xorey» deb nomlangan.

Demokrit, Platon kabi antik davr mualliflarining ko'pchiligi musiqaning inson ruhiy holatiga ta'sir qilishi haqida ko'plab dalillar keltirgan: Odisseya haqidagi eposda musiqa ta'sirida qontalash yaraning bitib ketishi tasvirlangan, hayotda juda qahrli bo'lgan Sparta hukmdori Likurg o'z qo'shinlari uchun musiqa yaratgan.

Qadimgi Xitoyda musiqa tartib va sivilizasiya ramzi hisoblangan, u tarbiyaning eng muhim vositasi hisoblangan va o'rganilishi shart bo'lgan fanlar qatoriga kiritilgan. Ma'lumki, Konfusiyning o'zi (er. avv. VI asr) sin degan musiqa cholg'usida chala olgan.

<sup>2</sup>indistonda qadimgi shifokorlar musiqadan davolash vositasi sifatida foydalanishgan. (Qarang: Petrushin V.I. «Muzo'kal'naya psixologiya» M., 1997, s.10).

O'rta asrlarda YAqin va O'rta SHarqda musiqa psixologiyasi Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Marog'iy, Kavkabi kabi buYuk mutaffakkirlar ijodida o'z rivojini topdi. Masalan, Forobiy (873-950) «Musiqqa haqida katta kitob»ida musiqaning inson psixologiyasi va ruhiy olamidagi ulkan ahamiyati haqida yozgan. Musiqqa kishilarni xursand qilishi, quvontirishi, tinchlantirishi, o'ylantirib qo'yishi, xotirjamlik baxsh etishi, sergaklantirishi va bir vaqtning o'zida uxlatib qo'yishi ham mumkin.

Ibn Sino (980-1037) musiqaning ruh bilan birgalikda tanaga ham shifobaxsh ta'sir ko'rsatishi haqida aytib o'tgan. U musiqani ham fiziologik, ham psixologik nuqtai nazardan o'rgangan. Abdurahmon Jomiy (1414-1492) «Risolai musiqqa»sida, shuningdek, interval oraliqlarining his etilishi, ularning melodik va garmonik tuzilishlari konsonans (yoqimli) va dissonans (yoqimsiz) bo'lishlari haqida fikr Yuritgan.

O'rta asrlarda G'arbda bu sohani Boesiy, Gvido Aretinskiy, Sarlino (XVII-XVIII asrlar) kabi nazariyotchi musiqachilar hamda Kunau, Kirxer, Matteson va boshqa musiqachi faylasuflar taraqqiy ettirdi.

Umuman olganda, ilmiy musiqa psixologiyasi nemis tabiatshunosi German Gel'mgol'sning (1821-1894) «Uchenie o sluxovo'x ohuheniyax kak fiziologicheskaya osnova teorii muzo'ki» asaridan boshlangan. Gelmgol's eshitish rezonansi nazariyasini ishlab chiqdi. Unga ko'ra, eshitish sezgilari ichki eshitish organlarining tashqi ta'sirga javoban aks-sado berishi tufayli Yuzaga keladi.

Musiqqa psixologiyasining fiziologik asoslari fiziolog-olimlar I.M.Sechenovning (1829-1905) «Refleksno' golovnogo mozga» («Bosh miya reflekslari») va I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati, ikkinchi signal sistemasi haqidagi asarlarida bayon qilingan.

Fan taraqqiyotiga psixolog musiqashunoslar Karl SHtumpf (1848-1936) («O psixologicheskoy proisxojdenii prostranstvenno'x predstavleniy»), «Psixologiya muzo'kal'no'x vospriyatnyy», Kurt Zaks (1881-1959), shuningdek, ularning izdoshlari M.Mayer, G.Revesh, V.Kyoler katta hissa qo'shishgan.

Musiqqa psixologiyasi ravnaqida E.Jak-Dal'kroz, N.A.Gar-buzov, S.M.Maykapar, B.V.Asaf'ev, YU.N.TYulin, B.M.Teplov, M.V.Blinova, L.A.Mazel', E.V.Nazaykinskiy, V.V.Medushevskiy, G.S.Tarasov, YU.B.Aliev, Z.Rikyavichus, L.Komes va boshqa olim-larning munosib hissalarini bor.

### **Musiqqa psixologiyasi yo'nalishlari va tarmoqlari**

B.V.Asaf'evning «kompozitor-ijrochi-tinglovchi» fikriga tayanib, musiqqa psixologiyasini quyidagi asosiy yo'nalish va jabhalarga ajratish mumkin: ijodkorlik, ijrochilik, musiqiy idrok. SHu tartibda keyingi yo'nalishlarga taqsimlab chiqish mumkin: ta'lim, musiqashunoslik, ma'rifiy, texnik, funksional, psixoterapevtik.

**Musiqiy ijod psixologiyasi.** Bu, asosan, bastakor va kompozitorlarning xayol, tasavvur, musiqqa yaratish, yangi musiqiy asarni dunyoga keltirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatidir. P.I.CHaykovskiy mazkur jarayon va o'sha daqiqada paydo bo'luvchi ilhom haqida shunday degan edi: «Ilhom kelgan paytda, odatdagi holatdan chiqib boshlaysan. Bir fikr boshqa birini haydamoqchi bo'ladi. Notalarni yozib ulgurmayсан. YAngidan yangi musiqiy obrazlar paydo bo'ladi, bu tushuntirib bo'lmas ilhom tuyg'usidir». Kompozitor nota yozish bilan birga asarni tinglovchiga aniq etkazib bera oladigan ijrochini ham yaxshi tasavvur qilishi kerak.

**Musiqiy ijrochilik psixologiyasi.** Musiqqa san'atidagi asosiy faoliyatlardan biri musiqqa ijrochiligidir. Zo'r ijroni tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg'ularini his etamiz yoki Yunonlar aytganidek, «katarsis» – ichki, ruhiy poklanish va yangilanish jarayonini boshdan kechiramiz.

Ijrochi – bastakor, kompozitor va tinglovchini bog'lab turuvchi halqadir. Musiqiy ijrochilik san'atidagi farqlar musiqiy cholg'uning o'ziga xos xususiyatiga, yakkaxon va ommaviy ijrochilik shakli, musiqiy asarning janri va shakliy xususiyatiga, qolaversa, birinchi o'rinda ijodiy individuallik, ijrochining professional tayyorgarlik va mahorat darajasiga bog'liq. Ijrochi uchun tinglovchi psixologiyasini tushunish va his etish, estetika talablari va auditoriya kayfiyatini to'g'ri anglash, muallif fikrini mohirlik bilan etkazib berish, auditoriyani o'z irodasiga bo'ysundirish, tinglovchida go'zal estetik hissiyotlarni uyg'otish, ijodiy kayfiyat juda muhimdir.

**Musiqiy idrok psixologiyasi.** Musiqani tinglab idrok etishni ham xuddi musiqqa yozish va ijro etish kabi musiqqa san'atidagi asosiy faoliyat turi deb hisoblash lozim. Qolaversa, tinglovchisiz musiqqa san'ati o'z ma'nosini yo'qotadi va yashashdan to'xtaydi. Musiqqa tinglash va uni idrok etish musiqqa faoliyatining shunday turiki, u bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi. Aytishlaricha, musiqani barcha eshitadi, biroq uni hamma ham tinglab idrok eta olmaydi.

Musiqani tinglash jarayonida idrok etish darajasi tinglovchining umumiy madaniyati va musiqiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq, unga to'g'ri proporsionaldir. Musiqiy asarning to'liq va chuqur idrok etilishi, shuningdek, kompozitor va ijrochi mahoratidan ham dalolat beradi. Ana shu tarzda, tinglash jarayoni tinglovchining tarbiyasi, individual qobiliyatlari va tayyorgarligi bilan ajralmas holat deb xulosa qilish mumkin.

**Musiqiy ta'lim, tarbiya psixologiyasi.** Musiqqa psixologiyasining mazkur tarmog'i psixologiya yo'riqlariga asoslanadi, o'quvchilar bilan ishlashning aniq usullarini topishga yordam beradi. Bu tarmoq o'quvchilarning tabiiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltiruvchi va musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga imkon beruvchi musiqqa pedagogikasiga uzviy bog'liqdir. Musiqani eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritmni aniqlash, tekshirish kabi an'anaviy usullar bilan bir qatorda musiqqa psixologiyasida musiqiy zehn, iste'dod, qobiliyatlarni aniqlash, asarni o'rganish va uning ustida ishlash, konsertda chiqish uchun tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilar va konsert jamoasi bilan o'zaro munosabatlar va boshqalar Yuzasidan testlar ishlab chiqilgan. (Testlar ilova qilinadi)

Tarixdan bilamizki, ko'plab mashhur musiqachilar ustozlari oldida o'zlarini qarzdor deb biladilar. Kasb tajribasi taraqqiy etib, boyitilib, muttasil avloddan-avlodga o'tib kelgan. SHarqda keng tarqalgan «ustoz-shogird» maktabi buning yorqin misolidir. Unga ko'ra, «shogird» nafaqat

o'qituvchining sabog'ini olgan, balki uning uyida yashab, musiqa san'ati sirlarini oilaviy-maishiy psixologiya bilan birgalikda egallagan. Keyin esa, o'quvchi ma'lum bir kamolot darajasiga etgach, o'zi ham shunga o'xshash «ustozlar maktabi»ni tashkil etgan. Bu maktab vakillari ko'pincha katta uYushma sifatida birlashib, ommaviy-madaniy tadbirlar va boshqa bayramlarni o'tkazishgan.

Musiqiy ta'lim va tarbiya psixologiyasi ikki yo'nalishda o'rganiladi: bu maxsus musiqa ta'limi va umumiy musiqiy tarbiya yo'nalishlaridir.

**Musiqashunoslik, musiqa targ'iboti va musiqiy ma'rifat psixologiyasi.** Musiqashunoslik va musiqiy ma'rifiy faoliyat musiqa san'atini o'rganish va targ'ib etishga yo'naltirilgan. Musiqa tarixchilari, tanqidchilari, nazariyotchilari, targ'ibotchilari, musiqa ma'rifati bilan shug'ullanuvchilar musiqa haqidagi fanlarni o'rganishadi, tahlil qilishadi, boyitishadi, rivojlantirishadi hamda klub, istirohat bog'lari, dam olish uylari, radio, televidenie, matbuot va boshqa joylarda omma o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borishadi.

Mustahkam poydevorga tayanadigan musiqiy ijrochilik va ijodkorlik san'atni mukammallashtiradi. Musiqiy ma'rifat esa tinglovchilar auditoriyasini san'at, jahon musiqa madaniyatining durdonalari va Yutuqlari bilan tanishtiradi. Musiqa psixologiyasida musiqashunosning intellektual va fikrlash faoliyatini hamda bastakor, kompozitor, ijrochi, tinglovchi o'zaro munosabatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganishga muhim o'rin ajratiladi.

**Musiqa san'atining texnik ta'minoti va texnik jihozlanishi psixologiyasi.** Bu yana bir faoliyat turi bo'lib, zamonaviy musiqa san'atini usiz tasavvur etib bo'lmaydi. Musiqa san'atining texnik ta'minoti va texnik jihozlash sohasidagi mutaxassislar maxsus texnik bilimlar bilan bir qatorda musiqiy bilim, musiqa cholg'ularini yasash, ta'mirlash, sozlash, musiqa yozish va eshitish moslamalari bilan ishlashda kerak bo'ladigan bilim va ko'nikmalardan, musiqaviy spektakllar, konsertlar, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar postanovkasi va rejissurasidan xabardor bo'lishi kerak. Zamonaviy musiqa san'ati texnikaga, yangi texnologiyalarga tobora ko'proq tayanib bormoqda. Bu texnika bilan ham, ijodiy, ijrochilik, tinglovchilik faoliyati bilan ham bog'lanib ketadigan mutlaqo boshqa bir psixologiyadir.

**Funksional musiqa psixologiyasi.** Amaliy maqsadda musiqadan foydalanishni funksional musiqa deb ataluvchi yo'nalishda ko'ramiz. Uning yordamida kundalik maishiy hayotga estetika baxsh etiladi, ayniqsa, ishlab chiqarish sohasida bu turdagi musiqa mehnat samaradorligini oshirish uchun mehnat jarayonining jadal sur'atlarda olib borilishini ta'minlaydi. Mehnat jarayonida musiqadan foydalanish ish kuni davomida asabiy-ruhiy holatlarning xususiyatlari bilan bog'liq o'z qonuniyatlariga ega. Bunda mehnat jarayoni uchun kerakli ritmni o'rnatish, ish samaradorligini oshirish, ortib boradigan charchoqni chiqarish kabi ishlab chiqarish muammolarini hal etishga ko'maklashuvchi musiqani tanlash katta ahamiyatga ega.

**Musiqiy psixoterapiya psixologiyasi.** Sog'lomlashtirish maqsadida foydalaniladigan musiqa musiqiy psixoterapiyada o'rganiladi. Buning uchun tinglash va ijod qilishga mo'ljallangan musiqa tavsiya etiladi. Bizda musiqa psixologiyasining mazkur sohasi deyarli o'rganilmagan, negaki u ham medisina, ham musiqa sohalari bo'yicha jiddiy bilimga ega bo'lishni taqozo etadi.

Biroq buYuk mutaffakir-olim Ibn Sino tadqiqotlarida bu sohadagi izlanishlarni ko'rishimiz mumkin. Musiqaning inson salomatligi, emosional holatiga ta'sir etish imkoniyati, musiqani tinglash va ijro etish jarayonidagi chuqur musiqiy kechinmalarning ijobiy ta'siri - tibbiyotda ham, musiqada ham ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhim asosdir.



## II BO‘LIM

### MUSIQACHI SHAXSI VA FAOLIYATI

#### Musiqachi shaxsi

##### Muammoning asosiy masalalari:

*Musiqachi shaxsi deganda kimni tasavvur qilasiz?*

*Uning qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?*

*Yaxshi musiqachi va pedagog bo‘lish uchun inson o‘zida qanday xususiyatlarni rivojlantirishi kerak?*

Barcha bu yuk sozandalarning aytishicha, bu shunday shaxski, u odamlarga go‘zallik, umid bag‘ishlaydi, ruhni Yuksaltiradi, insonlarni pok va go‘zalroq qiladi. Bu shaxsda, birinchi navbatda, musiqa tuyg‘usi bo‘lishi kerak. Psixolog va sozanda B.M.Teplov musiqiylik haqida bu - musiqaning emosional ifodalanishini (shakl, janr, kuy, ritm, lad, tembr, dinamika va boshqalarni) his eta olish qobiliyati, deydi.

#### Musiqachi shaxsi va faoliyati xususiyatlari

San‘at ustalari shaxsining xususiyatlarini odatda rus tilida «t» harfi bilan boshlanadigan beshta so‘zga bog‘lashadi. Bular: «talant» – iste‘dod, «tvorchestvo» – ijod, «trudolYubie»– mehnatsevarlik, «terpenie» – sabr, «trebovatel’nost’» – talabchanlik. Bu erda musiqachining iste‘dodi katta ahamiyatga ega. Masalan, yosh Mosart Vatikanda xor ijrosidagi murakkab asarni (Italiya kompozitori Grigorio Allegrining «Mizerere») atigi ikki marotaba eshitib, ikki kundan so‘ng o‘z xotirasida saqlab qolgan o‘sha to‘liq partituraning qo‘lyozmasini Rim Papasiga topshirgan.

Mashhur ital'yan dirijyori Arturo Toskanini deyarli butun konsert repertuarini yoddan dirijyorlik qilgan. Ayni paytda u o'n yil avval yodlagan asarini ham esda saqlagan. Ferens List murakkab asarlarni konsertga aravada ketayotib yodlay olgan. Bu misollarning barchasi shaxsning musiqiy xotira deb ataluvchi psixologik xususiyatiga bog'liq.

Katta sozandaning shaxsi doimo ko'pqirrali. Bunga fanni ham, san'atni ham birdek tushuna oladigan O'rta SHarqning qomusiy olimlari yaqqol misoldir. Masalan, musiqa san'atida Forobiy ham nazariyotchi, ham musiqa cholg'ularining ajoyib ijrochisi bo'lgan.

Musiqachi shaxsining serqirraligi haqida nemis dirijyori Bruno Val'ter shunday degan: «Faqat sozanda – bu har doim yarim sozanda».

Musiqachining mehnatsevarligi haqida P.I.CHaykovskiy: «Eng keragi, avvalo, mehnat, mehnat va yana mehnat... Men har kuni ertalab ijodga o'tirib, to biror narsa chiqmaguncha ishlayveraman», degan edi.

Mashhur pianinochi va pedagog M.Klementi sakkiz, ba'zan o'n ikki va hatto o'n to'rt soatlab mehnat qilgan.

S.V.Raxmaninov yoshligida, sog'lig'i joyidaligida «haddan tashqari yalqovligi bilan ajralib turganligi»dan afsuslangan, keyin esa, salomatligi zaiflashib qolganda faqat ish haqida o'ylagan.

Sozanda shaxsining bosh maqsadi haqida F.List o'quvchilariga shunday degan: «Agar katta musiqachi bo'lishni istasang, unda katta odam bo'lishga harakat qilishing kerak bo'ladi».

V.I. Petrushinning «Muzo'kal'naya psixologiya» (M.,1997) kitobi bo'yicha mustaqil o'rganish uchun mavzular.

1. Musiqachi faoliyati (38-45)
2. Sozanda harakatlari texnikasi (45-66)
3. Ijod. Umumiy holatlar (67-82)
4. Badiiy ijod (82-89)
5. Musiqiy ijod (89-98)
6. Sozandaning ish tartibi va gigienasi (98-111).

## MUSIQA SAN'ATIDA BILIM OLISH JARAYONLARI

### Diqqat

Inson faoliyatining boshqa turlarida bo'lgani kabi, musiqa san'atida diqqat insonning barcha sensor (hissiy), intellektual (aqliy), harakatga keltiruvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim va zarur shartidir.

*Diqqat* – ma'lum paytda faoliyatning bir narsaga qaratilishidir.

Asosan ikki tur: ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat mavjud. Lekin yana bir o'ziga xos turni ham ajratish mumkin – u ixtiyoriy diqqatdan keyin kelib, uzoq muddat davom etishi bilan xarakterlanadi. Bu ancha tig'iz va samarali aqliy faoliyat bo'lib, barcha turdagi mehnatga Yuqori samaradorlik bag'ishlaydi.

Musiqa san'atida musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog'liqdir. Ayniqsa, ommaviy ijrochilikda diqqat juda muhim. Namoyishdan avval dirijyorning ko'tarilgan qo'llari, *auftakt*, *yakkaxon* va *jo'rnavoz* o'rtasidagi ishora va harakatlar – bularning hammasi musiqa terminologiyasida diqqat deb ataladi.

Zamonaviy psixologiyada diqqat tarkibida uning sifat xususiyatlari o'rganiladi. Bunga diqqat barqarorligi, ko'chishi, taqsimlanishi va hajmi kiradi. SHuningdek, bu sanoqqa diqqat parokandaligini, buzilishini ham kiritish mumkin.

Diqqat – bu o'quv jarayonidagi eng muhim tarkibiy bo'laklardan biridir. Barcha buYuk musiqachilar favqulodda diqqat egasi bo'lgan. Masalan, Mosart ko'pchilik bo'lgan xonada hamda begona ovozlari eshitilib turganda ham xotirjamlik bilan musiqa yoza olgan. Pol'shalik pianinochi va kompozitor I.Gofman maqsadga muvofiq yagona ish uslubi haqidagi savolga: diqqatni jamlash – omad alifbosidagi birinchi harf, deb javob bergan. Rus kompozitori va pianinochisi N.Metner bo'lsa: «Ish boshlashdan avval yaxshilab diqqatni jamlash hamda nima va qanday qilishni bilish zarur, shunda musiqachi kamroq toliqadi va charchaydi», - degan edi.

I.Gofman shunday degan: «Ish to'la aqliy diqqat jamligida bajarilgandagina serunum bo'ladi». Biroq «shu narsani esda tutish kerakki, mashg'ulotlarda miqdoriy tomon faqat sifat tomoni bilan qo'shilgandagina ma'no kasb etadi».

E'tiborlilik, diqqatni jamlash qancha muddat ishlash kerak, degan savolga chek qo'yadi. I.Gofman har yarim soatdan so'ng tanaffus qilishni va hech qachon tanaffussiz bir yoki ikki soat ishlamaslikni tavsiya qilgan.

L.Barenboym tomonidan (V.I.Petrushinning «Muzo'kal'naya psixologiya». M. 1997, 121-122-betlar) musiqachilar uchun diqqatni takomillashtirish mashqlari taklif etilgan edi. S.Stanislavskiyning ta'kidlashicha, aktyor diqqati, agar u o'zining kundalik ishida iloji boricha e'tiborli va intizomli bo'lsa, o'z professional ishiga tushunib va mas'uliyat bilan yondoshsa, maxsus mashqlarsiz ham takomillashishi mumkin. SHuningdek, barcha musiqachilar diqqatning shakllanishida o'zini tashqaridan turib eshita olish qobiliyati g'oyat muhim hisoblanishini ta'kidlashgan. SHuning uchun ham musiqachining chalayotgan narsasini nazorat qila olishi, o'zini tashqaridan eshita olishi – musiqa san'atining asoslaridan biridir.

Musiqachining diqqati turlicha: keng va tor, kech qoluvchi va ilgarilab ketuvchi bo'lishi mumkin. 2arakatlarning avtomatlashuvi diqqatning bir erga jamlanishiga yordam beradi.

### SEZGI

Biz o'zimizni o'rab turgan olamni sezgi organlarimiz va his qilish orqali bilamiz va kerakli axborotni olamiz.

*Sezgi* – narsa va hodisalarni sezgi a'zolari orqali his qilishning oddiy psixik jarayonidir.

Sezgi organlari bilan muvofiq tarzda sezgining ko'rish, eshitish, hid, ta'm, teri, mushaklarni harakatga keltiruvchi va organik sezgi turlari mavjud. Musiqa san'atida eshitish,

taktil (paypaslab), ya'ni qo'l tegizib his etish, harakat va ritmik sezgilar katta ahamiyatga ega. Xonandalar, damli (puflama) va torli musiqa cholg'ulari sozandalari uchun ovozga o'ziga xos to'lalilik va ohang bo'yoqdorligini ta'minlovchi vibrasion sezgi ham katta ahamiyatga ega. Sezgi qonuniyatiga ularning sifati, tezligi, davomiyligi va fazoviy lokalizasiya kabi xususiyatlarini ham kiritish mumkin. Eshitish sezgisi asosida musiqachilarda ichki eshitish va musiqiy eshitish xususiyatlari rivojlanadi. Bizning analizatorlarimiz moslashuvchanlik qobiliyatiga ega, ya'ni qo'zg'atuvchi ta'sirga ko'nika oladi. Uzoq muddat baland ovozda musiqani tinglagandan so'ng biz «piano» yoki «messo-forte» ovoz kuchidagi nozik o'zgarishlarni kam his etamiz. Uzoq vaqt sukunatda bo'lgach esa, biz hatto o'rta kuchdagi ovozni ham baland ovozdek qabul qilamiz. Masalan, SHopen kuyni hech qachon baland chalmagan. Lekin u piano, pianissimo, messo-forte bobida tengsiz ijrochiligi hisobiga ohangdorlikka erishgan.

### **Sezgilarning o'zaro ta'siri**

Sezgilarning o'zaro ta'siri asosan ikki: sensibilizasiya va sinesteziya jarayonida sodir bo'ladi. O'zaro ta'sir jarayonida bir analizatoridagi sezuvchanlikning ortib ketishi «sensibilizasiya» deb ataladi. Masalan, agar balet musiqasini radio orqali emas, teatrda eshitsak u yaxshiroq va to'liqroq qabul qilinadi, ya'ni ko'rish va eshitish analizatorlarining uyg'unlashishi qabul qilish jarayonini yanada boyitadi.

Sinesteziyaga shunday sezgilarning o'zaro ta'siri kiradiki, ularda qo'zg'alish ta'siri ostida bir analizatoridan boshqa bir analizatorga xos bo'lgan sezgi paydo bo'ladi. «Nozik did», «qichiq rang», «shirin tovush» kabi iboralar bundan dalolat beradi. Ko'rish-eshitish sinesteziyasi hodisasi nisbatan ko'proq uchraydiki, u rangli eshitish fenomeni sifatida mashhurdir. Bunday eshitish turi Rimskiy-Korsakov, Skryabin, CHYurlyonida bo'lgan.

Rimskiy-Korsakov har xil ohanglarni tabiatga xos bo'lgan ranglar koloritida qabul qilar edi. Lya major ladi Yuzasidan u shunday degan edi: «Bu yoshlik, bahor ladi – biroq muzli, taqir erli erta bahor emas, balki nastarin guli gullagan, butun o'tloq gullar bilan qoplangan paytdagi bahor. Bu tong biroz yorishgan, lekin butun sharq qirmizi va oltin rangga kirib ulgurgandagi tong shafag'ining ladi».

Misol uchun, Skryabin musiqa amaliyotida birinchi bor simfonik partituraga rangli eshitish, nurlil musiqa (svetomuzo'ka) bilan bog'liq bo'lgan maxsus rang turkumini olib kirgan. («Prometey», «Olov poemasi», 1910).

Litva kompozitori CHYurlyonis (1875-1911) o'z rassomlik ijodini musiqa san'ati bilan bog'lagan. SHuning uchun ham o'zi chizgan suratlariga «Bahor sonatasi», «Quyosh sonatasi», «Prelyudiya» va «Fuga» kabi musiqiy nomlar bergan. SHuningdek, O'zbekiston kompozitori G.Mushel' (1909-1989) ham o'zi chizgan suratlariga «Peyzaj do major», «Peyzaj re major» yoki «Bahoriy qo'shiq», «Samarqand laddagi fuga» kabi musiqiy nomlar bergan.

### **Oberton (qo'shimcha tonlar) sezgisi**

Nemis olimi G.Gel'mgol's (1821-1894) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar («Uchenie o sluxovo'x ohuheniyax kak fiziologicheskaya osnova teorii muzo'ki», Spb., 1875, «O fiziologicheskix prichinax muzo'kal'noy garmonii», Spb., 1896) yagona ovoz murakkab tabiatga ega ekanligini va uni tarkibiy qismlarga bo'lish mumkinligini ko'rsatdi. Buning uchun spektrometr deb atalgan moslama yaratilgan bo'lib, ovozni uni tashkil etayotgan sadolarga ajratib chiqadi. Ovoz spektrida qo'shimcha sadolar guruhidan iborat alohida ko'tariluvchi avjlar «formantalar» deb ataladi. Ovoz jilodorligi aynan ularning tarkibiga bog'liq.

Ovoz jarangdorligi va ulug'vorligi sezgisi unda Yuqori ashulachilik formantalarini mavjudligidan dalolat beradi. Past ovozda formanta esa ovozga «metall» deb ataluvchi o'ziga xos va Yuqori baholanuvchi sifatni baxsh etadi. SHuningdek, past ashulachilik formantasi ham mavjud. U ovozga Yumshoqlik, quYuqlik, mayinlik, kenglik, tovlanish hissini beradi. Musiqa

cholg'ularining tovushlari ham o'z bo'yoqlariga ega. Bu esa u yoki bu asarning o'ziga xosligini etkazib berish uchun zarurdir.

### **Eshitish sezgisi**

Musiqqa san'atida eshitish sezgisi asosiy hisoblanadi. Musiqiy eshitish qobiliyati – musiqani to'la-to'kis qabul qila olish qobiliyatidir. Fiziologik jihatdan eshitish – bu eshitish organlari orqali tovush tebranishlarini qabul qilishdir. Tovushlar tashqi quloq orqali eshitish nervlari (3000 ta atrofida deb hisoblanadi, bitta oktavaga 300-400 ta to'g'ri keladi) vositasida o'rta va ichki quloqdan o'tib, bosh miyadagi eshitish analizatorlariga etib boradi. SHuningdek, analizatorlar ayrim musiqqa cholg'ularining chalinishi (skripka, al't, damli cholg'ular), ff da ovoz chiqarish va odamning gapirishi va kuylashi jarayonida bosh miya suyagining tebranishi orqali ham ovoz qabul qiladi.

Musiqiy eshitish qobiliyati ovoz past-balandligi, kuchi, tembri va davomiyligini yaxshi ilg'aydi. Eshitish sezgisining chegaralari: eng past tovushlar «do» subkontraktavagacha 16 gers (1 soniyada 16 ta tebranish) atrofida tebranish chastotasiga, eng Yuqorilari – ettinchi oktavaning «mi bemol'» 20000 gers (1 soniyada 20000 ta tebranish) atrofida. Mazkur chegara diapazonidan tashqaridagi tovushlar (infratovushlar – pastdagi va ul'ratovushlar – Yuqoridagi) umuman qabul qilinmaydi. Musiqiy eshitish qobiliyati past-balandlik, kuch, tembr o'zgarishlarini o'rta registrda yaxshiroq ilg'aydi. Bunda musiqachilar 5-6 sent (butun tonning 1G'20 qismi atrofida: 1 sent – butun tonning 1G'100 qismi atrofida) va bir desibel (tovush kuchi balandligi birligi) balandlikdagi o'zgarishlarni farqlay oladilar.

Musiqiy eshitish qobiliyati quyidagi turlarga ega: mutlaq, nisbiy va ichki eshitish qobiliyati.

*Mutlaq eshitish* – musiqiy tovushlarning mutlaq baland-ligini etalonlari (masalan, kamerton) bilan solishtirmagan holda aniqlash qobiliyati. Lekin barcha buYuk musiqachilarda ham bunday qobiliyat bo'lmagan. Masalan, Vagner, SHuman, Meyerber, CHaykovskiy, Grig bunday iqtidorga ega emas edi, biroq yaxshi rivojlangan nisbiy eshitish iqtidoridan muvaffaqiyatli foydalanganlar. Ma'lumki, Mosart, List, Skryabin mutlaq eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan. SHuningdek, sozlovchi eshitish qobiliyati (B. Teplov atamasi) ham mavjud. U texnik faoliyat natijasi bo'lib, ovoz balandligidagi minimal (2 sentgacha) o'zgarishlarni ham farqlay olish qobiliyatidir.

*Nisbiy yoki interval eshitish* – kuy, intervallar, akkordlardagi tovushlar o'rtasidagi tovush balandligini sezish, aniqlash, ijro etish qobiliyatidir. Nisbiy eshitishda odam biror bir nota yoki akkordni aniqlashi yoki ijro etishi uchun hech bo'lmasa bitta tovush haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi va undan boshqasini keltirib chiqarishi, topishi kerak. Ba'zan yaxshi nisbiy eshitishni soxta mutlaq eshitish deb ham atashadi. Odam o'z ovozi yoki kamerton tovushining eng past yoki eng baland ovozini yodda tutadi va shunga tayanib, o'zi eshitgan boshqa tovushlarni aniqlaydi.

*Ichki eshitish* –musiqaning butun tarkibiy qismini xayolan tasavvur qilish (notalarga qarab yoki xotira bo'yicha)qobiliyati.

Psixologik tomondan musiqiy eshitish qobiliyati –musiqiy axborotning tashqi akustik ifodalanishining tahlili va sintezi, uning emosional bahosini ifodalab berishning o'ziga xos mexanizmidir. Bu bilan bog'liq tarzda ritm, lad, kuy, ko'povozlik, tembrni his etish va boshqa eshitish turlari farq qilinadi.

Musiqiy eshitish qobiliyatining yana bir muhim tarkibiy qismi umumiy musiqiylik hisoblanadi. Bu musiqqa va musiqiy kechinmalariga emosional munosabatda ifodalanadi.

Musiqiy eshitish qobiliyati musiqiy faoliyat jarayonida rivojlanib boradi. Mutlaq eshitish qobiliyati bundan mustasno, negaki uni maxsus mashqlar orqali takomillashtirishning iloji yo'q. Bilvosita yo'l bilan, ya'ni tembr yoki ovozning ma'lum holati va boshqalar orqali tovush balandligini aniqlashga yordam beruvchi «soxta» mutlaq eshitishni (B. Teplov atamasi)

rivojlantirish mumkin. Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun maxsus mashg'ulot darsi – sol'fedjio ishlab chiqilgan.

SHuningdek, musiqiy eshitish qobiliyatining *zonaviy tabiati* ham mavjud. Bu nazariya N.Garbuzov tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur nazariyaga ko'ra, tovush, tembr, lad, dinamika, ritm o'zining turli zonasiga ega. Masalan, butun ton oralig'i (b.2) 200 sent miqdoriy ko'rsatkichga ega bo'ladi. Biroq 190 va 210 sent ham b.2 bo'ladi, faqat boshqa zonada.

### Kuyni, bir ovozlikni his etish

Aynan kuyni, bir ovozlikni his qilish tufayli xoh royal', xoh karnay yoki dutorda ijro etilgan kuyni biz tanib olamiz. Bu qobiliyat interval va lad hissini o'z ichiga oladi. Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha *sol'fedjiolash* jarayonida interval hissiga emas, balki lad hissiga ko'proq tayanib mo'ljal olishadi. Lad hissi negizida vengriyalik kompozitor va pedagog Zoltan Kodayning kuy hissini rivojlantirish tizimi yaratilgan. Bu tizim «nisbiy (relyativ) lad sol'mizasiyasi tizimi» deb nom olgan (tizimda turli belgilar va bo'g'in nomlari qo'llanadi).

Kuyni, bir ovozlikni his qilish qobiliyati ko'proq ashulachilar, torli va puflab chalinadigan cholg'u sozandalarida oson va tabiiy rivojlanadi. Fortepiano chalishni o'rganishda uslubiyotchilar mashq etilayotgan asar kuy yo'llarining vokalizasiyasini, kuylanishini yoki ularni bo'rttirib chalishni tavsiya etadilar.

### Polifoniyani his etish

Musiqiy eshitish qobiliyatining bu turi tarbiyasi bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq ovozning musiqa to'qimasidagi harakatini eshita olish qobiliyatiga bog'liq. Mumtoz polifoniyani eshitish qobiliyati musiqachiga jamoaviy ijroda boshqa partiyalarni eshitishga yordam beradi. Masalan, u pianinochiga asosiy kuydan tashqari boshqa barcha faktura unsurlarini – bas harakati, jo'rovovzni, polifonik asarda esa nafaqat Yuqori ovozlar, balki qolgan barcha ovozlarni eshitish imkonini beradi.

### Garmoniyani his etish

Garmoniyani eshitish qobiliyati - tovushlar muvofiqligiga (interval va akkordlarga) tayanuvchi musiqiy hisdir (B. Teplovga ko'ra). Agar polifonik his va uning rivojlanishi musiqani gorizontol bo'yicha eshitish qobiliyatiga bog'liq bo'lsa, garmonik sezgi tovushlarni vertikal bo'yicha eshita olish qobiliyatiga aloqador bo'lib, pianinochilarda yaxshiroq rivojlanadi. Pianinochi asarning tub garmonik ma'nosiga qancha etib borsa, – deydi atoqli pianinochi Lev Oborin, – uning ijrosi shu qadar ruhiy chuqurlashadi. Bu so'zlar boshqa barcha musiqa mutaxassislariga ham taalluqlidir.

### Tembr-dinamikani his etish

Tembr – bu tovushlar bo'yoqdorligi. Dinamika – tovush kuchi. Tovush dinamikasi, ya'ni uning jaranglash kuchi to'g'ridan-to'g'ri tembr bilan bog'langan. Ijro bo'yoqdorligiga musiqa cholg'usining tembr imkoniyatlaridan foydalana olish hisobiga erishiladi. Ular esa, o'z navbatida, musiqachi-ijrochining o'z qo'lida bo'lgan kichik dinamik gradasiyalarga bog'liq.

Tembr hissi turli musiqa cholg'ularining jaranglanishini muntazam eshituvchi orkestr sozandalarida yaxshi rivojlangan bo'ladi. Simfonik orkestr o'zining yigirmadan ortiq turdagi musiqa cholg'ulari bilan birgalikda boy rang-barang ovoz palitrasini qamrab oladi.

Musiqachining kasb malakasi ko'p jihatdan tembr-dinamik his rivojlanganligi, uning aniq va tiniqligiga bog'liq bo'ladi.

## **Musiqiy-eshitish tasavvuri**

Musiqiy-eshitish tasavvuri – tovush past-balandligi harakatini eshitish va uni miyada gavdalandirish qobiliyatidir (B. Teplov). Ichki eshitish va musiqiy-eshitish tasavvuri tushunchasi tashqi ovozlarga tayanmagan holda musiqani eshitish va boshdan kechirish qobiliyati bilan bog'lanib ketadi. Bu qobiliyat musiqiy xotira va musiqiy tasavvur negizining asosini tashkil etadi.

## **Metroritmikani his etish**

Metroritmikani his etish – musiqaning vaqtga bog'liq xususiyatidir. U ijroda va tinglashda nafaqat eshitish, balki harakat tabiatiga ham egadir.

Metroritmika hissi turli uzunliklarning uzluksiz ketma-ketligi bilan bog'liq. Ular go'yo bir tekis ritmik harakatlarni nisbatan kichik impul'slar bilan to'ldirib turadi.

Ritm hissi rivojlantirish juda qiyin bo'lgan qobiliyatlardan biridir.

### Harakat hissi

Nozik, aniq, tez va epchil harakat qila olish ham Yuqori baholanuvchi qobiliyat hisoblanadi. Bu kuchli musiqiy eshitish qobiliyati, mustahkam musiqiy xotira va yaxshi ritm hissidir.

Barcha cholg'ularda ijro etish san'ati badiiy obraz va texnik mahorat bir butunligiga asoslanadi.

Asarni ijro etishda texnik mukammallikka erishish, harakat jarayonlarini mustahkamlashning eng yaxshi usuli – asta-sekin, aniq chalishni mashq qilishdir.

## **IDROK**

*Idrok* – narsalar yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri orqali ongimizda etishidir.

Psixologiyada idrok predmetlilik, yaxlitlik, strukturalilik, barqarorlik, anglangan bo'lishi kabi o'ziga xos jihatlariga ajratiladi.

Sezgida predmetning alohida qismlari, idrokda predmetning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. Masalan, musiqiy asarni eshitib, biz uning kuyi, ritmi, tembr, garmoniyasini alohida qabul qilmaymiz, aksincha, bu musiqani obrazli, umumlashgan holda yaxlitligicha anglab, idrok etamiz.

«Musiqqa ensiklopediyasi»da musiqiy idrok musiqaning inson tuyg'ularida aynan muvofiq ravishda aks etishi va musiqiy materialni shaxsan idrok etish (persepsiya) hamda insonning musiqiy va hayotiy tajribalari (appersepsiya), bilimi, emosional kechinmalari va asar qiymatini birlashtirishga yo'naltirilgan murakkab faoliyat ekanligi ko'rsatilgan.

Qabul qilish jarayonida qaysi analizator ustunlik qilishiga qarab, idrokni tasniflab chiqish mumkin. Ko'rish, eshitish, sezish, kinestetik (fazoviy, vaqtga bog'liq), hid va ta'm bilish idroklari farqlanadi. Musiqqa san'ati uchun hid va ta'm bilishdan boshqa hamma analizatorlar katta ahamiyatga ega. Eshitish idroki bo'lishi o'z-o'zidan shart.

Musiqqa psixologiyasida ritm, tembr, lad, kuy, garmoniya, polifoniya, shakl, janr idroki masalalarini ko'rib chiqish muhimdir. Musiqiy idrokning to'laqonliligi musiqiy qobiliyatning

(musiqiy bilim, ko'nikmalar, malakalar) rivojlanganligi, shuningdek, yashab tarbiyalanayotgan shart-sharoitlar darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

### Musiqiy idrokning o'ziga xos xususiyatlari

Nima uchun musiqani hamma eshitadi? Yu, lekin hamma ham idrok eta olmaydi? Nima uchun evropalik tinglovchi SHarq musiqasini, sharq tinlovchisi Evropa musiqasini har doim to'la tushunavermaydi? Musiqiy idrokning to'laqonliligi, musiqiy ifoda vositalarini tushunish imkoniyati, intensivlik va musiqiy kechinma turlari har bir odamda har xil bo'lib, o'z xususiyatlari, sababiga ega. Musiqa tarixi va amaliyotidan bir necha misol keltiramiz.

XX asr boshlarida O'zbekistonda yashab ijod etgan musiqachi, etnograf Avgust Eyxgorn shaharlik o'zbeklarning qo'shiqlari haqida, jumladan, shunday degan: «Ularning qo'shiqlari ijrosini davomiy eshitish biz uchun yoqimsiz, bu narsa asabimizga tegadi»<sup>1</sup> SHarq tinglovchilari tomonidan ham operadagi vokal ariyalar, romanslar haqida shunga o'xshash fikrlar bildirilgan. Ular bu musiqani «qo'pol va notabiiy» deb hisoblaydilar.

Musiqiy asarni to'g'ri va to'la baholay oluvchi rivojlangan musiqiy eshitish qobiliyatiga ega kishilarda bunga qarama-qarshi fikrlar mavjud. Ikki jildlik «O'zbek xalq qo'shiqlari» to'plamini yiqqan musiqashunos E.E.Romanovskayaga nazariyotchi va kompozitor B.V.Asaf'ev shunday xat yozgan: «<sup>2</sup>ozircha qo'shiqlarni naridan-beri ko'rib chiqdim, lekin bu ularning xuddi tirik gullarday musaffo va xushbo'yiligini his etishim uchun etarli bo'ldi. Doimo hali «sayqal berilmagan» asl xalq ijodiga duch kelganimda menda shunday hissiyot paydo bo'ladi» (...). Sahifa ortidan sahifani huzur qilib ko'raman va eshitaman, ohang va naqshlar bezagidan hayajonga tushaman (...). Qo'shiqda nafis harakatlar bisyor. Mazkur butunlay o'ziga xos nafis ohangdorlik butun melosda sinchkov «texnik sinkopalash»dan Yuzaga kelsa kerak. Men melosning bu turini juda ham yoqtiraman. Afsus, tilni bilmayman. Ayting-chi, unda urg'u alomati biror ohangda mavjudmi (ya'ni, ovoz urg'usi vokalizasiyaga bog'liqmi yoki gap davomiyliklar nisbatidami)? YOxud barcha sinkopalik musiqa cholg'ularidan kelib chiqadimi? YOki bu qo'llar nafisligi, Yuz ifodalari, gavda, butun tana, qadam tashlashning o'ziga xosligi, oyoqlar o'yini, ya'ni aslida raqsdan kelib chiqayotganmikin? Bunday nafis kuy asosida qanday balet qilish mumkin bo'lardi-ajoyib! Bu plastikada ochiq hissiyotlarsiz qancha lirizm, qancha dilkash xayollar va tuyg'ular iliqdigi bor. Bilmadim, hammasi shundaymi yoki bu mening tasavvurlarimmi-lekin mening tirik qo'shiqli ritm-kuy-plastikasi va maysa, gullar hamda asal kabi xushbo'y talaffuz haqidagi taassurotlarim shunday (...). Siz o'zingizning muvaffaqiyatli ishingiz bilan menga ko'p quvonch keltiringiz»<sup>2</sup>.

Boshqa bir mashhur musiqashunos, kompozitor, pedagog X.S.Kushnaryov doira va nog'ora usullari jarangi haqida shunday deydi: «<sup>2</sup>ar bir usul nafaqat ma'lum bir ohang, balki o'ziga xos intonasiyasi bilan ham tavsiflanadi (balandlikka ko'ra harakati bilan). Usul –ritm tomoni oldinga o'ringa olib chiqilgan va etakchi, intonasion hamda muayyan tus berib turuvchi kuy»<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> «Muzikal'naya fol'kloristika v Uzbekistane», T., 1963, s.98.

<sup>2</sup> E.E.Romanovskaya. Stat'i i dokladi. Zapisi muzikal'nogo fol'klora. / Sost. M.S.Kovbas (Maqola va ma'ruzalar. Musiqiy fol'klor yozuvlari / Tuzuvchi M.S.Kovbas). –T., 1957, s.25-26.

<sup>3</sup> X.S.Kushnaryovning 1943 yil jzbekiston san'atshunoslik institutida qilgan ma'ruzasi. Matn saqlanib qolmagan. YU.Konning «Tonkost' nablyudeniye, glubina vivodov» maqolasida iqtibos keltirilgan, M., Sov. muzika, 4-son, 1969, s.66-68.



Evropa musiqasining SHarq tinglovchisi tomonidan tushunilishi va qabul qilinishi haqida mashhur o'zbek shoiri Furqatning misoli e'tiborga molik. U 1890 yilda Toshkentdagi rus musiqqa jamiyati konsertida qatnashgan va bu haqda «Nag'ma va nag'magar va aning cholg'usi va ul nag'ma ta'siri xususida» she'rini yozadi. Mazkur she'rda u fortepiano ijrosi haqida shunday yozadi:

*O'zimga tushdi bir kun ushbu ahvol,  
Bor ekan nag'ma oning oti rayol.  
Eshittim bir qiz anda bahri hojot  
Qilur nag'ma tili bilan munojot.  
Azin ovoz bilan yig'lab xudog'a,  
Karam qilar der meni bag'ri adog'a.  
Maqomini qilur har nav' bunyod,  
Gahi qattiq fig'on, gah narmi faryod.  
Gahi naydek chekar ohista nola,  
Keltirur goh navo mashqin xayola.  
Menga ul nag'ma andog' qildi ta'sir,  
Jigardin o'tdi go'yo tez par tiyr.  
O'shal dam bo'ldi holotim digar dun,  
To'lub-toshdi Yurak monandi Jayhun.*

Musiqiy ijrodagi ko'povozlilik ham Furqat nazaridan chetda qolmagan. Xor ijrosini tasvirlay turib, u baland va past ovozlar bir paytning o'zida yangrashini, musiqqa cholg'ulari haqida gapirganda musiqachilar birgalikda cholg'ularda chalganda ularning har biridan «turli xil tovush» chiqishini ta'kidlab o'tgan<sup>4</sup>. So'ngra Furqat yozadi:

*Tilar ko'nglim tag'i ul erga etsam,  
O'shal qizning munojotin eshitsam,  
Etib ul nag'madan jonimga rohat,  
Zamoni o'turub topsam farog'at.  
Ki oning nag'masi jismimda jondek,  
YUrar ta'siri ham rang ichra kengdek.*

*Ayo Furqat, quloq sol zabt etib xush,  
Ki shoyad naslimiz solgay debon gush<sup>5</sup>.*

Keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, tinglovchining musiqani qabul qilishida tafovutlar mavjud. Bir tomondan – musiqani qabul qilmaslik, tushunmaslik, boshqa tomondan esa – musiqiy idrokning teranligi va nozikligi. Musiqani qabul qilishdagi bu tafovutlar hayot, turmush, tarbiya, musiqiy qobiliyatlarning rivojlanganligi, musiqiy eshitish qobiliyati, musiqqa san'atini tushunishga tayyorlik va bunga bo'lgan xohish bilan bog'liq bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ega.

**Nazaykinskiy E.V. «O psixologii muzo'kal'nogo vospriyatiya» («Musiqani idrok qilish psixologiyasi haqida»)**

<sup>4</sup> Vizgo T.S. Razvitie muzikal'nogo iskusstva Uzbekistana i ego svyazi s russkoy muzikoy (jzbekistonda musiqqa san'atining rivojlanishi va uning rus musiqasi bilan aloqasi). -M.; Muzika, 1970, 70-71-bet.

<sup>5</sup> Furqat. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. -T., 1958. -9-10-betlar.

E.V.Nazaykinskiyning bu ishida musiqiy idrok musiqashunoslik, musiqa nazariyasi va estetikasi (kuy, lad, ritm, faktura, janr, shakl, asarning tasviriy va konstruktiv jihatlarining o'zaro munosabati, kompozitorlik va ijrochilik vositalarining uyg'unligi) nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Bu o'rinda xalq va professional, mumtoz va zamonaviy musiqaning eng yaxshi namunalari asosida tarbiya ko'rgan tinglovchining badiiy-estetik idroki asos qilib olingan. Aynan mana shu, qat'iy qilib aytganda, musiqiy idrok hisoblanadi.

Musiqashunoslik taraqqiyoti tarixi guvohlik berishicha (masalan, G.Riman va E.Kurt asarlari), psixologiya ma'lumotlariga, jumladan, musiqiy idrok psixologiyasiga asoslanish - musiqa qonuniyatlarini chuqur bilib olish, uning tabiati va o'ziga xosligini o'zlashtirish shartlaridan biridir. Biroq turli ilmiy tarmoqlar tutashgan masalalarni biladigan mutaxassislar barmoq bilan sanarli. Bu erda shunday vaziyat Yuzaga kelganki, yaqin kelajakda musiqa ta'limi va musiqa psixologiyasini birlashtiruvchi ko'plab tadqiqotlar paydo bo'lishini kutish qiyin. Bu yo'ldagi izlanishlar uchun, bir tomondan, musiqachi-nazariyotchilar B.V.Asaf'ev, YU.N.TYulin, L.A.Mazellarning ishlari, ikkinchi tomondan, musiqa muammolariga murojaat etgan zamonaviy psixologiya fanining yirik namoyandalari L.S.Vigotskiy, B.M.Teplov, A.N.Leont'ev-larning tadqiqotlari yo'naltiruvchi asos bo'lib hisoblanadi.

E.Nazaykinskiy asarida musiqiy eshitish qobiliyati fiziologik nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Bu quloq, markazga boruvchi va undan keluvchi nerv yo'llari, bo'g'inlar, markaziy nerv tuzilmasidagi ma'lum bir qismlarni o'zida qamrab oluvchi tizimdir. Motor o'xshashlik va *interiorizasiya* (ichga o'tish, motor harakatlarning qisqarib ichki, psixologik jihatlariga o'tishi) nazariyalari, albatta, qabul qilish qonuniyatlarining rang-barangligini to'la qamrab ololmaydi. Lekin ular qabul qilishning reflektorlik konsepsiyasini chuqurlashtiradi va boyitadi, perseptiv (idroq qilishga oid) vazifalar va harakatlar genizisining eng muhim jihatlarini ochib beradi, psixik aks etishning faolligini isbotlaydi.

Musiqani idrok qilishda harakatlarning roli muhimligi, musiqiy eshitish qobiliyatining shakllanishida qo'shiq aytishning muayyan ta'siri haqida guvohlik beruvchi dalillar musiqa amaliyotida anchadan buyon ma'lum. Tinglash tashqi shakllarining (qo'shiq aytish, chalish, ritmik harakatlarda) «ichki eshitish» yashirin harakatiga o'tish hodisasi ham ma'lum. Ular musiqa psixologiyasida o'rganilgan. Bu dalillarning barchasi idrokning motor konsepsiyasi va interiorizasiya nazariyasi nuqtai nazaridan yangicha yoritilishi mumkin.

Idrok etish qonuniyatlari bo'yicha izlanishlarda psixologik yo'naltirish, maqsad qilib qo'yish nazariyasi katta ahamiyat kasb etdi (D.N.Uznadze va boshqalar: «idroqni perseptiv maqsad boshqaradi»). G.N.Kechxuashvili musiqaning ladga asoslanib tuzilishini o'rganish uchun Uznadze maktabi tomonidan ishlab chiqilgan maqsad qo'yish psixologiyasi va tajribaviy metodikaning nazariy apparatini tatbiq etgan. V.V.Medushevskiy psixologik maqsad qo'yish muammosini tinglovchiga nisbatan ko'rib chiqqan. Ilgarilovchi aks etish masalasida esa Anoxin, Bernshteyn, Sokolov, Feygenberg, El'konin va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

B.V.Asaf'ev «Muzo'kal'naya forma kak proses» («Musiqiy shakl-jarayon sifatida») degan asarida tanib olish psixologiya-sini YU.N.Rags ijroda musiqachining qabul qilishini, A.Mol' – san'atshunoslikda axborot nazariyasini tadqiq etgan.

#### 2ayotiy tajribaning musiqiy idrokda o'rni

Musiqaning ta'sirchanlik tabiatini to'la yoki uning alohida unsurlarini o'rganish bevosita musiqiy idrok psixologiyasini va, birinchi navbatda, assosiativ va boshqalar uchun asos bo'lib hisoblanadigan hayotiy tajriba muammosini o'rganishga olib kelishi turgan gap.

Kitob davomida quyidagilar yoritiladi:

II ocherk. Musiqiy idrokda fazoviy komponent.

III ocherk. Musiqiy ritmning tabiiy asoslari.

IV ocherk. Nutq va musiqada ohang.

V ocherk. Musiqiy idrok genezisi.

Kitobda tinglovchi tajribasi tizimi sensor, motor-dinamik, ijtimoiy-kommunikativ tarkibiy qismlarga bo'linadi, bu esa ma'lum ma'noda ocherklar ketma-ketligini ta'minlagan. Musiqiy idrokning makoniy qismlarini tahlil qilishda idrokning sensor tomonini aniqlash qulay

bo‘lib chiqdi; musiqiy ritmning tabiiy asoslariga bag‘ishlangan ocherkda, tabiiyki, harakat tajribasining ahamiyati ajratib ko‘rsatilgan, «Nutq va musiqada ohang» mavzusi esa musiqaning kommunikativ (aloqa) qonuniyatlarini iloji boricha keng ko‘lamda ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Musiqiy-psixologik tadqiqotlarning galdagi vazifa-laridan biri, ehtimol, musiqiy idrokning rang-barang ijti-moiy muhim shakllarini o‘rganish bo‘lishi kerakdir (ijrochilar, bastakorlar, kompozitorlar, musiqashunoslar, shuningdek, boshqa san‘at turlari vakillari tomonidan musiqaning qabul qilinishi).

## XOTIRA

*Xotira* – eslab qolish, to‘plangan tajribaning saqlanishi va tiklanishidir. SHuningdek, xotiraning unutish xususiyatini ham nazarda tutish kerak. Bu jarayon to‘qimalar va ularning xossalari biximik o‘zgarishlari bilan birga amalga oshadi. DNK-genetik, avlod-dan-avlodga o‘tuvchi xotira tashuvchisi, RNK esa ontogonik, individual va hayotiy xotira asosi ekanligi olimlar tomonidan aniqlangan<sup>1</sup>.

Xotirani uch turga bo‘lish mumkin: 1) faoliyat bilan bog‘liq–harakat, emosional-obrazli va og‘zaki-mantiqiy xotira, 2) xususiyatga ko‘ra – ixtiyoriy va ixtiyorsiz, 3) vaqtga ko‘ra – qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira.

Xotira mashqi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, musiqa san‘atida ba‘zan turli hamda katta hajmdagi musiqiy asarlarini eslab qolishga to‘g‘ri keladi.

Yaxshi musiqiy xotira – bu musiqiy asarning tezda va uzoq muddatga yodda saqlanib qolishidir.

Mosart, List, Anton Rubinshteyn, Raxmaninov, Toskaninilarning musiqiy xotirasi kuchli bo‘lgan. Ular asosiy musiqiy adabiyotlarni yod bilgan. O‘zbek musiqasi namoyandalaridan YUnus Rajabiy «O‘zbek xalq musiqasi», «SHashmaqom» kabi ko‘p jildlik to‘plamlarini xotirasiga tayanib yaratgan. Hofizlar san‘ati ham bunga misol bo‘la oladi. «Hofiz» so‘zi «xotirali» deb tarjima qilinadi.

Ma‘lumki, musiqiy ijrochilikda yoddan chalish musiqachining ijrochilik imkoniyatlarini kengaytiradi. R.SHuman nota bo‘yicha har qanday erkin ijro etilgan akkord yoddan ijro etilganining yarmicha ham jaranglamaydi, deb hisoblagan.

## Musiqiy xotiraning asosiy turlari

Musiqiy xotirani quyidagi turlarga ajratish mumkin: harakat, emosional, ko‘rish, eshitish va mantiqiy xotira. <sup>2</sup>ar bir musiqachi individual qobiliyatlariga bog‘liq holda o‘zi uchun qulayroq bo‘lgan xotira turiga suyanadi.

Musiqashunos A.D.Alekseevning hisoblashicha, musiqiy xotira – eshitish, harakat, mantiqiy, ko‘rish va boshqa xotira turlarini o‘z ichiga olgan sintetik tushuncha.

Pedagog va pianinochi S.I.Savshinskiyning aytishicha, «pianinochi xotirasi komplekslidir – u ham eshitish, ham ko‘rish hamda mushakli harakat».

Musiqiy xotira muammolari bo‘yicha ingliz tadqiqotchisi L.Makkinnon shunday yozadi: «Yod olish jarayonida eng kamida uch xil xotira turi hamkorlik qilishi kerak: eshitish, taktil va motorli. Ular bilan bog‘langan ko‘rish xotirasi faqat mazkur o‘ziga xos kvartetni u yoki bu darajada to‘ldiradi».

<sup>2</sup>ozirgi kunga kelib musiqiy ijrochilik nazariyasida eshitish va motorli tarkibiy qismlarning birligi ijro xotirasining eng ishonchli shaklidir, degan nuqtai nazar o‘z tasdig‘ini topmoqda.

---

<sup>1</sup> DNK – dezoksiribonuklein, RNK – ribonuklein kislotasi.

Quyidagilar musiqiy xotiraning rivojlanishida katta ahamiyatga ega: asarning taxminiy tahlili, asarni o'rganish va yaxlit ijro jarayonida ongli fikrlash. Tahliliy yondashuvning muhimligi, asarni tushunish uning eslab qolinishi uchun muhimdir.

Zamonaviy psixologiyada matnni eslab harakat qilish uch guruhga bo'linadi: ma'noviy guruhlanish, tayanch ma'noli qismlarning aniqlanishi, mutanosiblik jarayoni.

### **I.Gofman formulasi bo'yicha musiqiy asarni eslab qolish**

Biz tavsiyalarimiz uchun mashhur «ko'raman-eshitaman-chalaman» formulasini va I.Gofman tomonidan taklif etilgan musiqa asari ustida ishlash tamoyillarini asos qilib olamiz. Mazkur tamoyillar zamirida turli ish uslublari yotadi:

1. Musiqa cholg'usiz asar matni ustida ishlash,
2. Musiqa cholg'usi ishtirokida asar matnini chalish,
3. Asarni matnsiz chalish (yoddan chalish),
4. Musiqa cholg'usi va notasiz ishlash.

Asarni yodlash uchun xotiraning ixtiyoriy turi (A.B.Gol'-denveyzer, L.Makinnon, S.I.Savshinskiy) afzal hisoblana-dimi yoki ixtiyorsiz turimi (G.Neygauz, K.Igumnov, S.Rixter, D.Oystrax, S.Feynberg)?

Agar birinchi guruh musiqachilar uchun S.I.Savshinskiyning «Xotira sermahsul ishlashi uchun yodda saqlashga ongli ravishda berilgan yo'llanma muhim shart bo'lib hisoblanadi» degan tamoyili xos bo'lsa, ikkinchi guruh musiqachilar uchun xos bo'lgan narsa G.Neygauz so'zlarida ifodalangan nuqtai nazardir: «Men toki asarni o'rganib olmaganimcha, uni shunchaki ijro etaman. Agar yoddan ijro etish kerak bo'lsa, uni eslab qolg'unimcha chalaman, agar yoddan ijro etish kerak bo'lmasa, unda eslab qolmasdim».

Ko'plab musiqachilarning xatolaridan biri shuki, ular yangi narsani o'rgana turib, uni ko'p bor takrorlash natijasida eslab qolishga urinishadi. O'rganishning bu usulida asosiy Yuk harakatchan xotiraga tushadi. Biroq muaammoni hal etishining bu usuli fransuz pianinotchisi Margarita Long to'g'ri aytganidek «shubhali sodiqlikning yalqovlik bilan hal etilishidir, buning ustiga bu ish qimmatbaho vaqtning egovidir».

Asarni eslab qolishda sekin tempdagi ijro katta foyda beradi.

Mosart: «YOzilgan asarga bir qarashda xuddi odamning ajoyib suratiga qaragandek, ketma-ket emas, balki to'la-to'kis qalban nazar tashlay olaman», degan edi.

### **TAFAKKUR**

*Tafakkur* – kishi ongida borliqning uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayonidir. Tafakkur hissiy bilish (his etish, idrok etish) vositasida va uning chegaralaridan chiqqan holda amaliy faoliyat asosida Yuzaga keladi. Tafakkur aniq bilimlar, dalillarga suyanadi, tahlil qiladi, qiyoslaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi.

Tafakkur muammolarini ilmiy, falsafiy o'rganish bilan bilish nazariyasi – gnoseologiya shug'ullanadi. Tafakkurni ikki fan mantiq va psixologiya tadqiq etadi.

Mantiqda tafakkurning mantiqiy shakllari o'rganiladi – tushunchalar, fikrlar, xulosa chiqarishlar.

Umumiy psixologiyada tafakkurning quyidagi turlari tavsiflanadi: ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli va abstrakt, mavhum (umumiy, nazariy). Mustaqillik, o'ziga xoslik, kenglik, ixchamlik, tezlik kabilar tafakkurning individual o'ziga xos jihatlaridir.

Musiqiy tafakkur musiqiy his, musiqiy idrok asosida paydo bo'ladi va ovozli, musiqiy, badiiy obrazlarga tayanadi.

Musiqiy tafakkur – musiqiy madaniyat o‘ziga xosligi, qonuniyatlarini bilishning spetsifik, intellektual jarayoni va musiqiy san’at asarini tushunishdir.

Musiqiy tafakkurning o‘ziga xosligi musiqiy qobiliyatning rivojlanganligiga, shuningdek, inson yashab tarbiyalanayotgan musiqiy muhit shart-sharoitiga bog‘liq. SHarq va G‘arb musiqiy madaniyatlari orasidagi tafovutlarni alohida ta’kidlash joiz.

SHarq musiqasi uchun monodiyaga asoslangan tafakkur: ko‘plab lad ko‘rinishlari (80 dan ortiq), chorak tonli, nimchorak tonli, glissando usullarining qo‘llanilishi, ritm tuzilishining boyligi, tovushlarning notemperasiyaviy munosabati, tembr va kuy xilma-xilligidan foydalanish bilan musiqiy tafakkurni gorizontal rivojlantirish, xosdir.

Evropa musiqa madaniyati uchun esa gomofon-garmonik tafakkur: garmonik ketma-ketlik harakati mantiqi bilan bog‘liq musiqiy tafakkurni vertikal rivojlantirish xosdir.

Musiqiy tafakkur qadim zamonlardan buyon o‘rganib kelinadi. Pifagorning monoxord ustida olib borgan tajribalari jarayonida kashf etgan musiqiy ovozlarning o‘zaro munosabatlari tizimi, aytish mumkinki, musiqiy tafakkur fanining rivojini boshlab berdi.

### **Tafakkur turlari. Tafakkurning individual xususiyatlari**

Musiqa san’atida ko‘rgazmali-harakatli tafakkurga ijrochi, pedagog, ma’rifiy ishlarni olib boruvchilar faoliyatini kiritish mumkin. Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur tinglovchi idrokining xususiyati bilan bog‘liq. Mavhum (nazariy, abstrakt-mantiqiy) tafakkur bastakor, musiqashunos faoliyati bilan bog‘liq. Musiqa san’atining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq ravishda, musiqiy tafakkurning yana bir turini ajratib ko‘rsatish mumkin – bu ijodiy tafakkur.

Musiqiy tafakkurning barcha turlari ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega, ya’ni ma’lum bir tarixiy davrga tegishli. Ana shu tarzda turli davrlar uslubi paydo bo‘ladi: qadimgi polifonistlar uslubi, Vena klassiklari uslubi, romantizm uslubi, impressionizm va boshqa uslublar. Musiqiy tafakkurning individualligini u yoki bu kompozitor, ijrochiga xos bo‘lgan musiqiy fikrlarni ifodalash usulida kuzatishimiz mumkin. 2ar bir san’atkor, u hatto jamiyat tomonidan tavsiya etilgan yo‘nalish uslubi doirasida harakat qilsa ham, takrorlanmas o‘ziga xoslikka ega.

Musiqiy tafakkur bevosita badiiy obrazning tug‘ilishiga bog‘liq. Zamonaviy musiqa psixologiyasida musiqiy asardagi badiiy obrazga uch – moddiy, ruhiy va mantiqiy ibtido birligi sifatida qaraladi. Moddiy ibtidoga nota matni, akustik o‘lchamlar, kuy, garmoniya, metroritm, dinamika, tembr, registr, faktura; ruhiy ibtidoga – kayfiyat, tasavvur, ifoda, iroda, hissiyot; mantiqiy ibtidoga – shakl, janr, mazmun kiradi. Kompozitor, ijrochi, tinglovchi ongida mana shu barcha musiqiy obrazlarning ibtidosi bor bo‘lgandagina biz haqiqiy musiqiy tafakkur haqida gapira olamiz.

Musiqiy faoliyatda tafakkur asosan quyidagi jihatlariga bog‘liq: asarning obraz qurilishi – bo‘lishi mumkin bo‘lgan assosiasiyalar, kayfiyat va ular ortida turgan fikrlarni o‘ylab ko‘rish; asarning musiqiy to‘qimasi – garmonik tuzilishida fikrlar rivoji, kuy, ritm, faktura, dinamika, agogika, shakllanish mantig‘ini fikrlab ko‘rish; fikr va hissiyotlarning musiqa cholg‘usi yoki nota qog‘ozida mujassamlashishining mukammal yo‘llari, usullari va vositalarini topish.

Ko‘pchilik musiqachi-pedagoglarning fikricha, zamonaviy musiqa ta’limida ishtirokchilarning professional ijrochilik qobiliyatlari, mashqi ustunlik qiladi, bunda esa boyituvchi va nazariy sifatlarga ega bilimlarning to‘planib borishi juda sekin kechadi. Musiqiy tafakkurning rivojlanishiga faol ko‘maklashuvchi musiqiy va umumiy intellektual dunyoqarashni kengaytirish yosh musiqachining doimiy ishi bo‘lishi lozim, negaki bu uning kasbiy imkoniyatlarini oshiradi.

### **Musiqiy fikrning rivojlanish mantig‘i**

Eng umumiy ko‘rinishda musiqiy fikrning mantiqiy rivojlanishi B.V.Asaf‘evning mashhur formulasi bo‘yicha – boshlang‘ich impul’s, harakat va yakunni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich impul’s ekspozisiya yoki bayon deb nomlangan bir yoki ikki mavzuning o‘tkazilishida mujassam bo‘ladi.

Bayondan so‘ng musiqiy fikrning rivoji boshlanadi va bu o‘rinda foydalaniladigan oddiy misollardan biri – qaytarish va qiyoslash.

O‘zgartirish va almashinish musiqiy fikr rivojiga boshqa bir misol bo‘lib hisoblanadi.

Ilgari surish – bu qiyoslashning shunday turiki, unda har bir qo‘shni bo‘lim avvalgi unsur va unga ab-bc-cd formulasi bo‘yicha yangi davom saqlanib qoladi.

KuchaYuvchi siqish, qisqartirish – bu asarning oxirida yoki davomida dinamikaning oshishi, sur‘atning tezlashuvi, garmoniyaning tezroq almashinishidir.

Kompensasiya (qoplash) – asarning bir qismi boshqa bir qismini xarakter, temp, dinamikada qoplashi, tenglash-tirishidir.

### **Musiqiy tafakkurni rivojlantirish**

Taniqli pedagog M.I.Maxmutovning umumpedagogik konsepsiyasiga asosan ishtirokchilardagi tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi muammoli vaziyatlar quyidagilar orqali Yuzaga kelishi mumkin:

a) ishtirokchilarning nazariy izohni talab qiluvchi hayotiy hodisalar, faktlar bilan to‘qnash kelishi;

b) amaliy ishlarni tashkil etish;

v) ishtirokchilarga shu hodisalar haqidagi avvalgi hayotiy tasavvurlariga qarama-qarshi hayotiy hodisalarning ma’lum bo‘lishi;

g) gipotezalar shakllanishi;

d) ishtirokchilarni mavjud bilimlarni qiyoslash, solishtirish va qarama-qarshi qo‘yishga undash;

e) ishtirokchilarni yangi faktlarni taxminan umumlashtirishga undash;

j) tadqiqiy vazifalar.

Musiqiy ta’lim vazifalari uchun muammoli vaziyatlar quyidagicha ta’riflanishi mumkin:

- asardagi bosh intonasion mag‘izni ochib berish;

- musiqiy asarning uslubiy yo‘nalishini eshitish orqali aniqlash;

- ma’lum bir kompozitor musiqasidan parchani boshqa kompozitorlar asari orasidan topish;

- ijrochilik uslubining xususiyatlarini ochib berish;

- musiqaga mos did, hid, rang, adabiyot, surat tanlash va boshqalar.

Ijrochilik jarayonida tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- turli tahrirdagi ijrochilik rejalarini taqqoslash;

- musiqiy fikr rivojlanadigan etakchi intonasiya va tayanch nuqtalar topish;

- asarning bir necha ijro rejasini ishlab chiqish;

- asarni har xil xayoliy cholg‘ulashtirish bilan ijro etish;

- asarni har xil xayoliy rangda ijro etish.

Musiqqa yaratish jarayonida tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- general-bas, burdon, ritmo-ostinato asosida garmonik yo‘lni melodik rivojlantirish;

- tanish qo‘shiqlarni yoddan eslab ijro etish;

- berilgan emosional holat yoki badiiy obrazga oid tonal va atonal xususiyatga ega p’esalarni improvizasiya qilish;

- musiqada nutqiy, oddiy, hayotiy dialoglarni ifoda etish;
- turli tarixiy davrlar, uslub, xarakterlarga oid improvizasiyalar;
- ayni asarning uslubiy, janr xilma xilligi.

## **XAYOL, TASAVVUR**

*Xayol, tasavvur yoki fantaziya* – yangilik yaratuvchi kishining ruhiy, ijodiy faoliyati natijasidir.

Xayol, tasavvur, fantaziya qobiliyati inson miya faoliyatidagi oliy fikrlash jarayonlarining eng ajoyibidir. Tasavvurli obraz yaratish, Yuzaga keladigan masalalarni hal etish, hatto kerakli axborot va bilim to‘liqligi bo‘lmasa ham, kelajakni ko‘ra olish imkonini beradi. Masalaning bunday hal etilishidagi kamchilik shundaki, tasavvurlar doim ham etarlicha aniq bo‘lavermaydi.

Umumiy psixologiyada tasavurning quyidagi: faol va sust ko‘rinishlari ajratib ko‘rsatiladi.

**Sust tasavvurlar:** atayin – xayol, orzu va bexos – tush, gallYusinasiya.

**Faol tasavvurlar:** yaratuvchanlik – tasvirga mos obraz yaratish va ijodkorlik – mustaqil holda yangi obraz yaratish.

Musiq san‘atida xayol, tasavvur, fantaziya favqulodda muhim ahamiyatga ega. Musiqiy ifoda vositasi faol tasavvur va uning yaratuvchilik va ijodkorlik xususiyatlari tufayli ongimizda badiiy obrazlar yaratilishiga yordam beradi.

Tasavurning faolligi, uning ijodkorlik xususiyati kompozitor, ijrochi faoliyatida, ularning yangi musiqiy badiiy obrazlar yaratishida etakchi rol’ o‘ynaydi. Xayol, tasavvur, fantaziya musiq san‘atiga shu qadar yaqinki, hatto aynan «fantaziya», «xayollar», «orzular» deb atalgan ko‘pgina musiqiy asarlar mavjud.

Xayol nafaqat fikrlash faoliyatida turli obrazlar yaratadi, balki insondagi organik jarayonlarga ham kuchli ta’sir etadi. Masalan, o‘qituvchining o‘quvchiga qo‘ygan noto‘g‘ri bahosi yoki shifokorning yanglish tashxisi qanday oqibatlariga olib kelishini bilamiz. Birinchi holatda norasolik kompleksi rivojlanib ketishi, ikkinchida esa bemor unda umuman bo‘lmagan kasalliklar bilan kasallanishi mumkin (boshqa misollar: o‘zini ishontirish, autotrening, gipnoz, ideomotor aktlar, bionurlar).

## **Musiq san‘atida tasavvur**

Musiqiy asar aynan uch ko‘rinishda mavjud bo‘ladi: kompozitor tomonidan yozilgan nota matni, bu yozuv asosida ijrochi tomonidan yaratilgan jonli ijro, musiqadagi badiiy obrazlarning tinglovchi hayotiy tajribasi bilan o‘zaro ta’siri (yaratish, ijro etish, tinglash – B.V.Asaf’evga ko‘ra). Bu faoliyat turlarining barchasi – musiq yaratish, uni ijro etish, qabul qilishda – sifatli musiqiy faoliyatni ta’minlovchi tasavvur obrazlari albatta ishtirok etadi.

Musiqiy asarni yarata turib kompozitor xayoliy ovozlarga tayanadi, ularni rivojlantirish mantig‘ini o‘ylab chiqadi, musiq yaratish jarayonidagi hissiyot va fikrlarni eng yaxshi holatda etkazib beruvchi ohanglarni tanlaydi.

Ijrochi kompozitor tomonidan berilgan matn bilan ishlay boshlaganda uning texnik mahorati musiqiy obrazni etkazib berishning asosiy vositasi bo‘lib chiqadi. Uning yordamida esa ijrochi kerakli temp, ritm, dinamika, agogika, tembrni topadi. Ijro muvaffaqiyati ko‘pincha ijrochi musiqiy asar obrazini qanchalik yaxshi his qilishi va tushunishiga bog‘liq bo‘ladi.

Agar tinglovchining tasavvurida musiq tovushlari asar ruhiga mos hayotiy vaziyatlar, obrazlar, assosiasiyalarni shakllantira olsa, u kompozitor va ijrochi ifodalamoqchi bo‘lgan narsani tushuna oladi. Ko‘pincha boy hayotiy tajribaga ega, ko‘p narsani boshdan kechirgan



kishi alohida musiqiy tajribaga ega bo'lmasa ham, musiqiy tayyorgarlikka ega, biroq hayotiy tajribasi kam odamga nisbatan musiqaga chuqurroq munosabat bildiradi.

### **Musiqiy tasavvurning hayotiy tajriba bilan bog'liqligi**

Bilamizki, bir hayotiy mazmun kompozitorlar tomonidan ularning individualligi, uslubi va yashagan davriga bog'liq ravishda turlicha gavdalantiriladi. Er Yuzining turli qit'alarida qayg'u va quvonchning farqi yo'q. Lekin bu tuyg'ularning musiqadagi ifodasi ko'pincha tarixiy taraqqiyot tamoyillariga muvofiq bo'ladi.

Bitta musiqiy asarni tinglagan ikki kishi o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda uni turlicha tushunishi, baholashi va unda turli obrazlarni ko'rishi mumkin.

Musiqani eshitish, ijro etish va yaratishga oid bu xususiyatlarning barchasi tasavvurning hosilasidir. U esa ikkita odamda bir xil bo'lmaydi.

Musiqiy tasavvur faoliyati musiqiy eshitish tushunchasiga chambarchas bog'liq. Bu tushuncha tinglash jarayonida yangrayotgan musiqa haqida bevosita taassurot beruvchi musiqiy idrok asosida rivojlanadi. Lekin musiqiy tasavvur faoliyati ichki eshitish ishi bilan yakunlanmasligi kerak. B.M.Teplov haqli ravishda ta'kidlaganidek: «deyarli hech qachon faqat eshitish taassurotlari bo'lmaydi va u ko'rish, harakat va boshqa lahzalarni o'z ichiga olishi kerak».

Biroq musiqiy obrazlar tilini so'zlar bilan tarjima qilishga urinishning keragi yo'q. P.I.CHaykovskiy o'zining To'rtinchi simfoniyasi haqida S.I.Taneevga yozgan xatida ta'kidlashicha, agar bu simfoniya so'zlar bilan ta'riflansa, u kulgi uyg'otishi va kulguli tuYulishi mumkin. «Simfoniya, - deydi P.I.CHaykovskiy, - so'z bilan aytib bo'lmaydigan narsani ifodalashi, lekin u ko'ngildan chiqishi va aytilish kerak bo'lishi lozim». Qolaversa, kompozitor musiqani yaratgan shart-sharoitlar ham o'rganilishi kerak. Asar uning dunyoni his etishi va u yashagan davr dunyoqarashidir va bu narsalar musiqiy asar ijrosidagi badiiy g'oyaning shakllanishiga ta'sir qiladi.

Ma'lumki, asar dasturi, ya'ni kompozitor biror nom bergan yoki maxsus tushuntirishlar bergan dastur nisbatan engilroq qabul qilinadi. Bu holda kompozitor uning asari bilan tanishishda ijrochi va tinglovchi tasavvurlari qay o'zanda harakat qilishini belgilab beradi. Nodasturiy asarning dasturini topish g'ayrimusiqiydir va musiqaga xuddi tasviriy san'atga yondashgandek munosabatni bildiradi. Agar, dastur mavjud bo'lsa uni bilish, B.M.Teplov to'g'ri ta'kidlaganidek, «musiqiy dasturni to'la va aynan qabul qilishning zaruriy sharti»dir. Buni, ayniqsa, bolalar bilan ishlashda e'tiborga olish kerak. «Agar bolalarga dasturni topish vazifasi Yuklatilsa, bu ularni musiqada ma'lum bir mazmun qanday ifodalanganligini eshitish o'rniga, undan tasviriy ishoralar izlashga majbur qiladi. Bu ish oqibatda musiqaga mutlaqo ma'nosiz bo'lmaganda ham, og'ir, ikki ma'noli, noaniq tilga bo'lgandek qarash paydo qiladi»<sup>6</sup>. Professional musiqachi uchun, G.G.Neygauz so'zlari bilan aytganda, «musiqa – tugallangan nutq, aniq fikr... u ma'lum bir immanent (o'ziga xos – *R.Q.*)ma'noga ega va shuning uchun uning qabul qilinishi va tushunilishi uchun hech qanday qo'shimcha so'z yoki tasviriy izoh va aniqlashtirishlarga ehtiyoj bo'lmaydi... SHu boisdan ham ijodiy tasavvuri bor odam uchun butun musiqa ayni choqda dasturdir (sof, dastursiz deb ataluvchi musiqa ham!) va u hech qanday dasturga muhtoj bo'lmaydi ham, chunki u butun mazmunni oxirigacha o'z tilida bayon etadi»<sup>7</sup>.

### **Musiqiy tasavvurning rivojlanishi**

<sup>2</sup>ozirgi paytda musiqa ta'limi nazariyasi va amaliyotida ta'limdagi «musiqiy cholg'ugacha» bo'lgan davrning zarurligi haqida ko'p gapirilmogda. Bu vaqtda o'quvchilarda usiz musiqa olamiga kirishning iloji bo'lmagan badiiy taassurotning minimum darajasi yig'ilib

<sup>6</sup> Teplov B.M. *Psixologiya muzikal'nix sposobnostey*, M., 1947, s.21-22.

<sup>7</sup> Neygauz G.G. *Ob iskusstve fortepiannoy igri*, M., 1987, s.31-32.



boradi. Bu haqda I.Gofman shunday degan: «O‘quvchi har bir nota, sekvensiya, ritm, garmoniya va notalarda ko‘rsatilgan barcha ko‘rsatmalarni tushunib etmaguncha klaviaturaga intilavermasa, o‘ziga juda yaxshi yordam bergan bo‘ladi, negaki chalish – ijrochi yaxshi biladigan narsani qo‘llar yordamida ifodalab berishdir»<sup>8</sup>.

Tayyorlov davrining vazifasi nafaqat musiqiy eshitish qobiliyatini, balki o‘z ichiga musiqiy eshitish, harakat va ko‘rish tasavvurlarini olgan barcha ijodiy tasavvur turlarini aniq bir maqsad yo‘lida rivojlantirishdir. Bolalarni tayyorlov davri mashg‘ulotlarida o‘qish, she‘r yozish, rasm chizish, naqsh solish, qo‘shiqlarni sahnalashtirish va drammatizasiya o‘yinlari kabi badiiy faoliyatning turli sohalariga jalb etish muhimdir.

Musiqiy asar talqinining xilma-xilligiga dinamika, agogika, artikulyasiya, pedalizasiya kabi ifodaviylikning ijrochilik vositalaridan foydalanish hisobiga erishiladi. Rivojlangan tasavvur sahna hayajonini engib o‘tishga va, umuman, musiqiy ijro sifatining yaxshilanishiga ko‘maklashadi. L.A.Barenboym uyda mashq qilganda o‘zini konsert zalida deb tasavvur qiluvchi pianinochini misol keltiradi. «U xayolan go‘yo auditoriya oldida butun dastur yoki alohida asarni ijro etishining o‘ziyoq etarli va u nima ishonchli jaranglayapti, nima yo‘q, tinglovchi u yoki bu p‘esa ijrosiga qanday munosabatda bo‘layotganligini biladi. Ana shunday bir necha repetisiyadan so‘ng u to‘la ishonch bilan sahnaga chiqishga tayyor bo‘ladi. Sahnaga chiqish uchun tayyorgarlik uslubini topgunga qadar pianinochi mutlaqo boshqa hissiyotni boshdan kechirardi: u yangi dastur bilan sahnaga chiqishga qo‘rqardi»<sup>9</sup> Musiqachi-ijrochi ishi amaliyotiga aktyorlik usullarining joriy etilishi badiiy ijroning Yuqori darajasini egallashga yordam beradi, undagi psixik jarayonlarning mukammallashishiga ko‘maklashadi.



Ana shu tarzda, «tasavvur» mavzusi so‘ngida shunday xulosa qilish mumkinki, musiqiy tasavvur faoliyati ichki eshitish jarayonida musiqiy-eshitish tasavvurlari sohasidan o‘tadi. Bilamizki, musiqachi uchun dunyoni «musiqiy» anglash xosdir, u atrof-muhitdan qancha ko‘p taassurot olsa, ongida shunchalik ko‘p obrazlar shakllanadi. Tasavvur ishi «fikrlash» yoki «badiiy» tarzda bo‘lishi mumkin, lekin har ikki holda ham kompozitor, ijrochi, tinglovchi kundalik hayotdan farqlanuvchi boshqa dunyoga o‘tishni bilishi zarur. Xayoliy vaziyatlar tasavvurni rivojlantirish uchun turtki bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

#### IV BO‘LIM

### MUSIQA SAN‘ATINING EMOSIONAL-IRODAVIY MU‘ITI

*Tuyg‘u* – ob‘ektiv dunyoga sub‘ektiv munosabat kechinmalari.

*Emosiyalar* – tuyg‘u kechinmalarining shakli.

Tuyg‘u kechinmalarining turli shakllari mavjud – emosiyalar, affektlar, kayfiyat, stress holati va boshqalar. Tuyg‘u turlari quyidagilar: ma‘naviy, intellektual va estetik tuyg‘ular (ba‘zan ularni Yuksak tuyg‘ular deb atashadi).

Musiqqa san‘atining eng katta qismi inson tuyg‘ulari va emosiyalaridan iborat. Bu san‘at tuyg‘uga murojaat etadi. Musiqiy asar tuyg‘ularimiz, emosiyalarimiz, kayfiyatimiz,

---

<sup>8</sup> Gofman I. «Fortepiannaya igra: Otveti na voprosi o fortepiannoy igre. M., 1961, s.33.

<sup>9</sup> Barenboym L.A. Voprosi fortepiannoy pedogogiki i ispolnitel’sstva. M., 1969, s.64.

ehtiroslarimizni junbushga keltirsagina bizni hayajonga sola oladi. Bunda tuyg'ular yoqimli, yoqimsiz, kulgili tus olishi mumkin.

Emosiya, affekt, kayfiyat, stress holatlari shaklidagi tuyg'ular kechinmasi, qoidaga ko'ra, ko'proq yoki kamroq zohiran namoyon bo'ladi. Ularga Yuzning ifoda harakatlari, mimika, jestikulyasiya, gavda holati, intonasiya va boshqalar kiradi. SHuningdek, asosiy emosional holatlarni: qiziqish, quvonch, rohat, hayrat, iztirob, g'azab, nafrat, fahm, qo'rquv, uyat va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

## MUSIQADA EMOSIYA VA TUYG'ULAR

Musiqqa vositalari orqali emosiya va tuyg'ularni ifodalash qadimgi Yunonlarning etos<sup>10</sup> va affektlar<sup>11</sup> haqidagi ta'limotga borib taqaluvchi uzoq an'anaga ega. Aristotel' fikriga ko'ra, musiqqa harakatni keltirib chiqaradi, har qanday harakatda esa ma'lum bir estetik xususiyatga ega quvvat bo'ladi. O'xshash narsa o'xshash narsaga intiladi va shuning uchun ham inson ayni paytdagi xarakteri va kayfiyatiga to'g'ri keluvchi musiqadan huzur oladi. Qadimgi Yunonlar – Aristotel', Platon, pifagorchilar uchun musiqqa tashqi hayot bilan insonning ruhiy holatini muvozanatga solib turish vositasi bo'lgan.

Affektlar nazariyasi tarafdorlari musiqaning ahamiyati va imkoniyatlari haqida gapirib, musiqqa insonning barcha ruhiy ehtiroslarini ifodalashga qodir, deb aytishgan. Musiqachidan tinglovchi qalbiga kuchliroq va ishonarliroq ta'sir etishi uchun u berilayotgan affektlarni boshdan kechirishni bilishi talab etilardi. XVIII asr klavisinisti Filipp Emmanuel' Bax shunday deb ta'kidlagan: «Musiqachining o'zi kechinmalarga to'lib toshgan bo'lsagina tinglovchi Yuragiga ta'sir qila oladi. Uning o'zi tinglovchiga etkazmoqchi bo'lgan affekt holatida bo'lishi kerak...».

Affektlar tadqiqotchilari tinglovchilarda u yoki bu emosiyani uyg'otish uchun qay vaziyatda u yoki bu musiqiy ifoda vositalaridan foydalanish kerakligini aniqlashgan. Masalan: A.Jomiy, Ramo, K.Zaks, K.SHtumpf – konsonans va dissonans, Kvens - asarning tonal rejasi, interval rejasi, konsonans va dissonans, temp va xarakteri haqida fikr Yuritgan.

Affektlar nazariyasi nuqtai nazaridan musiqiy ifoda qonuniyatlarini tahlil etib, ingliz tadqiqotchisi J. Xerris shuni ta'kidlaydiki, musiqqa ifodalayotgan emosiya har doim ma'lum bir g'oya, o'sha g'oya tashiyotgan ma'lum bir kayfiyatga bog'liq. «Musiqaning maqsadi – g'oyaga mos kela oladigan affektlarni uyg'otishdir...». J. Xerris she'riy matn musiqiy affektga yo'nalish berib, uning kuchi va ta'sirini oshirishi haqidagi fikrni ham o'rtaga tashlaydi: «Musiqqa va she'riyat hech qachon alohida- alohida holda ular birlashganda erishiladigan affektning berolmaydi».

V.I.Petrushinning «Muzo'kal'naya psixologiya» (267-270 betlar) kitobida V.G.Rajnikov tomonidan ishlab chiqilgan va musiqada qo'llanadigan emosiyaning 27 (ifodalovchi so'zlarning variantlari) va alohida belgilari keltiriladi. Masalan:

1. QUVONCHLI – bayramona, jarangdor, baland ovozli, yorqin, tetik, o'ynoqi, dadil, epchil, qoyilmaqom, nurli, porloq, mustaqil.

2. TANTANAVOR – ulug'vor, g'olibona, undovchi, mahobatli, muhim, dabdabali, zo'r, ahamiyatli, hashamatli, samarali, ochiq, ravshan, quvnoq va boshqalar.

(O'quvchilar bilan o'zingizning pedagogik ishingizda ulardan nusxa ko'chirishingiz va foydalanishingiz mumkin – R.Q.) Emosional muhit rivoji uchun bunday lug'atning zarurligi tushunarli. Ingliz tilshunoslari Sepir va Uorf gipotezalariga ko'ra, inson faqat o'xshash, verbal, ya'ni so'zli taqsimot va atamaga ega bo'lgan ob'ekt va tuyg'ularnigina aniq his qilishi va

<sup>10</sup> *Musiqqa etosi*(urf-odat, tabiat, fe'l-atvor, xarakter) – musiqaning ichki tuzilishi va uning insonga ta'siri.

<sup>11</sup> *Affekt* (ruhiy bezovtalik, hayajon) – qisqa muddatli j'ishqin emotsiyalar.

boshdan kechirishi mumkin. SHuning uchun verbal lug‘atning kengayishi bir vaqtning o‘zida boshdan kechiriladigan tuyg‘ular chegaralarini aniqlashtiradi va kengaytiradi.

Musiqiy asarda musiqachining emosional kechinmalar rang-barangligini ifodalash imkoniyati uning bu kechinmalarni o‘z shaxsiy psixik apparatida markazlashtirish qobiliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Bunga o‘xshash psixotexnikani (K.S.Stanislavskiy atamasi) egallash musiqachi kasbiy salohiyatining muhim tarkibiy qismidir.

## IRODA

Psixologiyada *iroda* deganda qo‘yilgan maqsadga etish uchun qiyinchiliklarni engib o‘tishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Xotira muammosi bilan bir qatorda iroda fenomeni ham keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otadi. Bu tushunarli, negaki hayotdagi ko‘plab muvaffaqiyatlarimiz oxir-oqibatda iroda va matonat tufayli turli qiyinchiliklar, o‘z ojizliklarimiz va tabiiy kamchiliklarimizni engish natijasidir. Vol‘ter aytadi: «Eng katta g‘alaba – o‘zimizning ustimizdan qilgan g‘alabamizdir».

Jamiyat rivojiga katta hissa qo‘shgan fan va san‘at namoyandalarining ko‘pchiligi, qoidaga ko‘ra, mustahkam va bukilmaz irodaga ega bo‘lganlar. Bu borada Bal‘zakning so‘zlarini keltirishimiz mumkin: «Katta irodasiz katta iste‘dodlar mavjud bo‘lmaydi... Iroda iste‘dodga nisbatan ancha ko‘proq mag‘rurlik uchun asos bo‘la oladi va bo‘lishi kerak. Agar iste‘dod – rivojlangan tabiiy layoqat bo‘lsa, mustahkam iroda – bu har daqiqada tiyib turiladigan va bartaraf etiladigan hissiyotlar, mayllar, injiqlik va qiyinchiliklar, turli murakkabliklarni engishdir»<sup>12</sup>.

Iroda orqali inson o‘zining hozircha mavjud bo‘lmagan, lekin iroda harakatlari natijasida ro‘y berishi kerak bo‘lgan kelajagini ta‘minlaydi. «Men bugun musiqa cholg‘usida olti soat dars qilmasligim mumkin va ertaga ham mashg‘ulotlarimni qoldira olishim mumkin, lekin agar haqiqiy musiqachi bo‘lishini istasam, unda men charchoqqa, kasallik va boshqa chalg‘ituvchi omillarga qaramasdan qunt bilan shug‘ullanaman», deydi irodali kishi.

Qaror qabul qilish va ijro etish iroda jarayonining muhim tarkibiy qismlaridir.

Iroda sifatlari, uning favqulodda namoyon bo‘lishining individual xususiyatlariga iroda kuchi yoki iroda sustligini kiritish mumkin.

## Optimal konsert holati

Konsertda muvaffaqiyatli chiqish yoki imtihonda yaxshi chalib berish uchun musiqachi optimal konsert tayyorgarlik holatida bo‘lishi kerak. Optimal konsert holati o‘zining psixologik o‘lchamlari bilan sportchilardagi optimal kurashish deb ataluvchi holatga mos tushadi. SHuning uchun bunday holatni sportdagidek uch – jismoniy, hissiy va aqliy o‘lchamlar bo‘yicha ko‘rib chiqish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

O‘zini jismonan yaxshi his qilgan, to‘la sog‘lomlik hissi paydo bo‘lgan paytda tana kuchlidek tuyuladi. Musiqachining jismoniy tayyorgarligi Yugurish, suzish, futbol kabi sport turlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Qo‘l, elka sohasiga zo‘r berish bilan bog‘liq mashqlar tavsiya etilmaydi, negaki gimnastika yoki og‘ir atletika kabi sport turlarida egiluvchi mushaklarga haddan tashqari zo‘r tushishi panja, elka, ko‘krak mushaklarida mushak siqilishini Yuzaga keltirishi mumkin.

Sir emaski, ko‘pchilik mashhur ijrochilar o‘zini jismonan yomon his etsa ham sahnaga chiqa olganlar va shunda ham juda yaxshi ijro etishgan. Bunday kuch va imkoniyat Raxmaninov, Gilel’s, Karayanlarda bo‘lganligini zamondoshlari ta‘kidlashgan. Bundan tashqari, sahnaga chiqa turib, bu ijrochilar o‘zini jismoniy tarafdin yaxshi his eta boshlaganlar. Konsert stressi organizmning himoya kuchlarini faollashtirgan va musiqachida kasallik hissi yo‘qolgan. Imtixon

---

<sup>12</sup> V mire mudrix misley. Vip.1.-M.,1962, s.84.

va eshitib ko'rish tanlovlaridan o'tuvchi juda ko'p yosh ijrochilar uchun jismoniy tetiklikni saqlab turish kasbiy mahoratni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zini yaxshi his etish va ijro apparatining tayyorligi natijasida musiqachilarda klaviatura, kamon, cholg'u pardasi, mundstukni alohida his etish bilan sifatlanuvchi qo'l, panja va barmoqlarda o'ziga xos jismoniy his paydo bo'ladi. Pianinotchilar «engil» barmoqlar haqida, skripkachilar «uchar» qo'llar haqida, puflab chaluvchilar «itoatgo'y» ambushYur (lablar, tilning qo'yilishi) haqida gapirishadi. Sahnaga chiqishdan avval bu hisiyotni Yuzaga keltirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun eslab qolish, yozib olish, qaytarish tavsiya etiladi.

### **Optimal konsert holatini egallash usullari**

Sahnaga chiqishdan oldin jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda aqliy va emosional tayyorgarlikka ega bo'lish ham muhim ahamiyatga ega. Ommaviy chiqish qilish vaziyatiga psixologik moslashishni ikki asosiy bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich – ijrochining autogen holatiga o'tishi va mushaklar bo'shashishi. Bu holatda insondagi ishontirish va o'z-o'zini ishontirish qobiliyati juda oshib ketadi. Ikkinchi bosqichda sahnaga chiqishning obrazli tasviri, xayoliy auditoriya oldida chalish, sozlash, rol' tayyorgarligi ishlab chiqiladi.

Ijroga chuqur berilish K.S.Stanislavskiy aktyorlarga tavsiya etgan kichik diqqat doirasini paydo qiladi - sahnada kuchli hayajonga layoqatli bo'lishga olib keladi. Sahnada sen va musiqadan boshqa hech kim yo'q deb tasavvur qilish, faqat tovushlar tabiatiga e'tiborni jamlashning o'zi musiqachini san'at fidoyisi bo'lishiga olib keluvchi ob'ektiv-markazlashuv munosabatlarining o'zidir.

«Ikki xil artist bor. Biri haqiqatdan ham to'la namoyon bo'lish uchun boshidanoq tinglovchining iltifoti, marhamati, shafqati, ma'qullashiga muhtoj bo'ladi; busiz ular suv quyilmagan gullardek qurib, qovjirab qoladilar: bo'g'iq, quruq, qobiliyatsizdek tuYuladigan darajada yomon chalishadi. SHopen, Skryabin, Sofroniskiyalar shunday bo'lgan. Boshqalarga esa bunday iliq muhit sira shart emas... Ular yanada gurkirab ketadilar, kurashga kirishadilar va g'alaba qozonadilar. List, SHalyapinlar shunday edi»<sup>13</sup>.

Qat'iylik va tirishqoqlik, mustaqillik va tashabbuskorlik, sabr va o'zini tuta bilish, botirlik va dadillik – bu iroda xatti-harakatining belgilari musiqiy faoliyatda turlicha amalga oshadi. Keraksiz impul'slarni to'xtatishning uddasidan chiqish va kerakli bo'lib hisoblanganlarini kuchaytirish iroda xatti-harakatining mohiyatidir.

Optimal konsert holatiga erishish uchun autogen berilish, muvaffaqiyat bilan ish olib borayotgan ijrochi obraziga kirishni o'rganish, asar ijrosiga ob'ekt - markazlashgan munosabatda bo'lish darkor.

## **V BO'LIM**

### **MUSIQA SAN'ATIDA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK TAFOVUTLAR**

#### **TEMPERAMENT**

Musiqqa san'ati faqat o'ziga xos bo'lgan ko'rinish va shakllarda, shuningdek, musiqiy-badiiy janrlarda, obrazlarda inson fikri, tuyg'ulari,

---

<sup>13</sup> Kogan G. Rabota pianista, M., 1968, s.54.

maqsadlari, emosiyalari va temperamentini aks ettiradi. Bunday tafovutlar musiqiy faoliyatning janri, shakli, ko‘rinishlari, musiqiy asar mazmuniga bog‘liq bo‘ladi.

Inson ruhiyatidagi dinamik ko‘rinishlarning individual xususiyatlarini biz *temperament* deb ataymiz.

Ruhiy jarayonlarning o‘tish tezligi inson temperamentida namoyon bo‘ladi. Temperamentlar xilma-xilligini bu jarayonlarning o‘tish sifati tarzida tavsiflash mumkin.

Gippokrat (eramizdan avvalgi V asr) kishi organizmining holati undagi suyuqliklarning (qon, zardob, safro) o‘zaro mutanosibligiga bog‘liq deb hisoblagan. Qismlarning tegishli tarzdagi mutanosibligi lotin tilida *temperamentum* deb Yuritilgan.

Turli temperamentlarning nomlari shundan kelib chiqqan.

Sangvinik («sanvis» – qon) – sezilarli psixik faollikka ega odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli vazmin tezkor turiga to‘g‘ri keladi.

Flegmatik («flegma» – zardob) – xotirjam odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli vazmin sust turiga to‘g‘ri keladi.

Xolerik («xole» – safro) – juda serg‘ayrat odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli novazmin turiga to‘g‘ri keladi.

Melanxolik («melayna xole» – qora safro) – psixologik faolligi past odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchsiz turiga to‘g‘ri keladi.

Antik davr fanining temperamentning organik asoslari haqidagi ma‘lumotlari faqat qiziqish uyg‘otadi, xolos. Lekin temperamentning tipologik tuzilishi to‘g‘ri tasniflangan va hozirgi vaqtgacha amal qiladi.

Musiqqa san‘atida turli temp, dinamika, xarakterning birlashuvi asarni ijro etish jarayonida unga rangdorlik va uyg‘unlik baxsh etib turadi. Musiqada asarni temperament bilan ijro etish juda muhim, bu tinglovchi idrokini faollashtiradi. Asar xususiyati ko‘p holda kompozitor va ijrochi temperamentiga, ularning ruhiy holatiga bog‘liq. O‘quvchilarning psixologik o‘ziga xosligini, temperamentini bilish pedagogga o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, zarur musiqiy o‘quv repertuarni to‘g‘ri tanlash imkonini beradi.

Jamoaviy ijro (orkestr, xor, ansamblda) uchun o‘quvchilarni tanlashda temperamentlarning bir-biriga mos kelishi, xilma-xilligiga e‘tibor berish katta ahamiyatga ega.

## XARAKTER

*Xarakter* – o‘zini tutishdagi o‘ziga xosliklar va biror narsaga bo‘lgan munosabat jarayonida namoyon etiluvchi shaxsning individual xususiyati.

«Xarakter» so‘zi Yunon tilidan tarjima qilinganda «naqsh, alomat», ya‘ni farqlovchi xususiyat, belgi, degan ma‘noni bildiradi.

Inson xarakterini (Yumshoq, ko‘ngilchan yoki qattiq, besabr; quvnoq yoki g‘amgin, dadil yoki uyatchan, murosali yoki murosasiz; xushmuomala, xayrixoh yoki qo‘pol, betakalluf) tashkil etuvchi individual xususiyatlar birinchi navbatda irodaga (masalan, qat‘iylik yoki ishonchsizlik, qo‘rqoqlik), tuyg‘ularga (xushchaq-chaqlik, g‘amginlik) va aqlga (kaltabinlik, sermulohazalik) taalluqlidir.

Xarakterning namoyon bo‘lishi qator holatlarda amalda irodaviy, emosional yoki intellektual qismlarga bo‘linmaydi (masalan: shubhachi, olijanob, himmatli, kekchi va boshqalar).

Inson xakteri aksariyat holda serqirradir. U odamlarning boshqalarga, o‘z-o‘ziga, ish, narsalarga munosabatida namoyon bo‘ladi.

## TEMPERAMENT VA XARAKTER

Agar temperament turli hodisalarga munosabatda insondagi tabiiy xususiyatlarni namoyon etsa, xarakter insonning hayotga munosabatida uning ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiradi. Temperament haqida u shiddatli, sust bo'lishi mumkin, deb aytilsa, xarakterni qat'iyatli, mehribon, tirishqoq va hokazo, deb ta'riflashadi. Temperament va xarakterdagi umumiy jihat shuki, ularning har ikkalasi insonning ijtimoiy qadr-qimmatini bildirmaydi. Murosasiz xolerik umumahamiyatga ega oliy maqsadlar uchun kurashishi, Yumshoq qat'iyatsiz melanxolik esa pastkash bo'lib chiqishi mumkin.

Temperamentning har bir turining kuchli va ojiz tomonlari mavjud. Tarbiya jarayonida temperamentning kuchli taraflariga suyanib, ojiz taraflarini neytrallashtirib, hayotda o'z o'rnini topa oladigan ijtimoiy qiymatga ega xarakter shakllantiriladi. Ana shu tarzda xarakter rivojlanish va mukammallashish xususiyatiga ega bo'ladi. A.Navoiy shunday degan:

*Tabiatga har neki odat bo'lur,  
CHu eskirdi odat tabiat bo'lur.*

Tipik xarakter tipik temperament asosida rivojlanadi, biroq xarakterning tarkibiy qismi temperament tarkibiy qismiga nisbatan kengroq.

SHaxsiy xususiyatlarning belgi va o'ziga xos jihatlari har xil musiqachilar hayoti va ijodida turlichadir. Anton Rubenshteynning aytishicha, ijroga nisbatan munosabati va musiqiy asarni tushunishi bir xil bo'lgan ikkita aynan yaxshi, lekin turli temperamentli musiqachilar bo'lishi mumkin emas. Temperament va uning asosida rivojlanuvchi xarakter muqarrar tarzda nafaqat musiqachining kundalik xulq-atvoriga, balki uning butun ijodiga, jumladan, musiqa yaratishi, talqin va idrok etishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Buni Romantizm davrining ikki mashhur namoyandasi -SHopen va List hayoti va ijodi misolida ko'rib chiqamiz.

## SHopen va List

SHopenning xarakteri introvertiv (o'z-o'ziga biqingan), Listniki esa – ekstravertiv (ochiq) bo'lgan. Uzoq davom etgan vaqt mobaynida SHopen va List yaqin do'st bo'lishgan. Ular bir-biridan o'zlarida etishmaydigan sifatlarni topishgan.

Zamondoshlarining xotirlashiga ko'ra, SHopen juda hissiyotli, ojiz va nozik bo'lgan. U o'z tinglovchilarini ijro nozikligi va shoiranaligi, musiqiy cholg'usining nafis jarangi bilan maftun qilardi. SHopen melonxoliyaga moyil edi, xarakteridagi bu xususiyat uning ko'plab asarlari – mazurka, ballada, noktYurnlarida namoyon bo'lardi. Katta auditoriyani yoqtirmaydigan SHopen musiqani faqat bir necha yaqin do'stlari oldidagina chalib o'zini to'la to'kis namoyon qilardi. «Katta zallar meni falajlaydi», – deb tan olgan edi u maktublaridan birida.

Bir kuni SHopen va List bir bayramda ishtirok etishadi. List SHopenning noktYurnlaridan birini chaladi. SHopenga ijro yoqmaydi va u shunday deydi: «Asarni bunday chalgandan ko'ra, umuman ijro etmagan yaxshi». SHu zahotiy oq List SHopenning zo'r etYudlaridan birini ijro etadi va bu barcha tashrif buYurganlarni, jumladan, SHopenni ham maftun etib qo'yadi. «Men konsertlar berishga yaramayman, – deydi SHopen Listga, – Lekin, bu ishni siz, siz boplaysiz. Omma iltifotini qozonmagan taqdiringizda ham, uni hayratda qoldirishga, junbushga keltirishga, zabt etishga va o'z ortingizdan ergashtirishiga sizning kuchingiz etadi»<sup>14</sup>.

List zamondoshlarini zo'r ijrosi bilan hayratda qoldirgan. Listning do'sti, taniqli nemis shoiri Heyne uning «barmoqlari klavishlar ustida haddan tashqari quturib harakat qiladi» deydi. Heyne Listni «Atilla», ya'ni xun qabilasining yo'l boshchisi nomi bilan atar edi: «...uning kelishi haqidagi xabar tufayligina klavishlar titrab ketadi, qaltiraydi, uning barmoqlari ostida chiyillab Yuboradi...», derdi u.

<sup>14</sup> Aleksandrov V., Meylix E. List, L., 1968, s.44.



Boshqa bir tanqidchi List konsertlari haqida shunday fikr bildirgan: «Konsertdan soʻng u jang maydonidagi gʻolib misoli turar edi... engilgan fortepiano uning yonida pisib turardi, uzilgan torlar xuddi... engilganlar bayrogʻi kabi salqib yotardi, qoʻrqib qolgan musiqa cholgʻulari uzoq burchaklarga biqinib olishardi»<sup>15</sup>. List pianizm islohotchiligida buYuk edi. Qolaversa, Heyne uning ijrosi haqida fikr bildirib, u yoxud juda ajoyib chaladi, yoxud boʻsh qozondek taraqlaydi deydi. «Momaqaldiroq – mening kasbim», – deya tan olgan List. Agar List tinglovchilarni ijrosining kuchi bilan hayratda qoldirgan boʻlsa, SHopen ularni nozik lirizm, betakror piano nYuansi bilan maftun etgan. SHopen shogirdlaridan ijroda «qoʻpollik qilmay quvvatli» boʻlishni talab etgan. U qattiq tovushga toqat qila olmasdi. List SHopen haqidagi kitobida deydi: «U romantizmning kuchli va shiddatli tomonini inkor etardi, u esankiratib qoʻYuvchi taʻsir va bemaʻni ortiqchaliklarga toqat qila olmasdi»<sup>16</sup>. List va SHopenning har ikkalasi ham buYuk musiqachilar boʻlgan, lekin har biri oʻzicha buYuk edi, har biri oʻz yoʻli bilan borib, dunyo madaniyatiga oʻzining takrorlanmas hissasini qoʻshgan. SHuning uchun musiqachining ijodiy kasbiga temperamentning qaysi turi koʻproq mos keladi, degan savolni berish nooʻrindir. Musiqachi tabiatan qaysi temperamentga ega boʻlishidan qatʻiy nazar, uning qoʻshgan hissasi bu temperamentga bogʻliq emas. Musiqa tarixida turli temperamentlarga ega boʻlgan ijodkorlar juda koʻp boʻlgan.

## QOBILIYAT

*Qobiliyat* – maʼlum bir turdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning subʼektiv sharti boʻlib hisoblanuvchi shaxsiyatning individual xususiyatidir. Qobiliyat – bilim, malaka va koʻnikmalar emas, balki ularga erishish dinamikasidir. Qobiliyat faoliyat usullari va yoʻllarini egallash tezligi, chuqurligi va puxtaligida aniqlanadi.

Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon boʻluvchi imkoniyatdir. Masalan, agar inson musiqiy faoliyat uchun zarur koʻnikmalarni egallamagan boʻlsa, uning musiqiy qobiliyati haqida gapirish mumkin emas. Amaliyotdan misol keltiramiz: oʻqituvchi bir sinfning ikki oʻquvchisiga bir asarni topshiradi. Bir oʻquvchi bir haftadayoq bu asarni tez va bexato idrok etadi, boshqasi esa bir oydan soʻng ham ijroda xatoga yoʻl qoʻyadi. Bunday hollarda har qanday pedagog Yutuqlardagi farqni qobiliyatlardagi tafovut hisobiga kiritadi. Demak, qobiliyat deganda insonning lozim boʻlgan bilim, koʻnikmalarni egallashida va ularni amaliyotda samarali qoʻllashida yordam beruvchi psixologik xususiyatlar tushuniladi.

YUqorida keltirilgan nazariy holat va amaliy misollarga qaramay qobiliyat va uning rivojlanish muammosi psixologiya va pedagogikaning eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Qobiliyat sezgi analizatorlari, kuch, harakat hamda asabiy, jismoniy va aqliy jarayonlar muvofiqlashishi kabi nerv sistemasi xususiyatlariga bogʻliq boʻlgan tabiiy iqtidor, isteʼdod, shuningdek, tashqi ijtimoiy muhit taʼsiri ostida rivojlanadi. Musiqiy taʼlimni boshlash, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish haqida G.G.Neygauz shunday degan: «Qaysidir musiqa cholgʻusida chalishni oʻrganishdan avval – u bola boʻladimi, katta yoshli odam boʻladimi – qandaydir musiqani allaqachon egallagan boʻlishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, musiqani ongida saqlashi, koʻngliga jo qilishi va idroki bilan eshitishi lozim. Talant va buYuklikning siri shundaki, kishi ongida musiqa u birinchi bor barmoqlarini klavishaga tegizishi yoki torni chertishidan ancha avval mavjud boʻladi»<sup>17</sup>.

Qobiliyatning eng Yuqori darajasi «talant» deb ataladi. Talant – insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va oʻziga xos tarzda amalga oshirish imkonini beruvchi qobiliyat, tabiiy iqtidor hamohangligidir. Talant haqida xalqning oʻzida «Xudo bergan» degan gap bor. Oʻz navbatida, tabiiy iqtidor, qobiliyat, talant hayotiy, kasbiy tajriba va zoʻr mehnat bilan uygʻunlashsa mahorat shakllanadi. Agar qobiliyatning Yuqori darajada namoyon

<sup>15</sup> Kogan G. *Rabota pianista.M.*,1963,s.137.

<sup>16</sup> List F. *SHopen. M.*, 1956, s.266.

<sup>17</sup> Neygauz G.G. *O iskusstve fortopiannoy igri, M.*, 1987, s.11.

bo'lishi «talant» deb atalsa, talantning Yuqori darajada namoyon bo'lishi bu Yuklikdir. Bu Yuklik – bu inson ijodiy kuchining Yuksak darajada namoyon bo'lishi. Nemis faylasufi SHopengauer bu haqda shunday deydi: «*2ech kim tekkiza olmagan mo'ljalga tekkizgan mergan – talantdir, hech kim ko'rmagan mo'ljalga tekkizgan mergan – buYukdir*».

### **Tug'ma va ijtimoiy omillar**

Qobiliyat masalasidagi markaziy muammo uning irsiyligi, tug'maligidir. Platon inson qobiliyatlari tug'ma ekanligini aytgan va inson bilgan barcha narsa uning ideal bilimlar dunyosida bo'lgan paytidan xotiralar bo'lib hisoblanadi, deb taxmin qilgan.

Mashhur tabiatshunos CHARlz Darvinning amakivachchasi Frensis Gal'ton o'zining birinchi kitobi «Talantning tug'maligi, uning qonuniyatlari va oqibatlari» (1869), shuningdek, boshqa kitoblarida ta'kidlashicha, buYuklik va iste'dod avloddan avlodga beriladi, tashqi muhit omili esa bunda sezilarli rol o'ynamaydi.

Mashhur polyak pianinotchisi Ignasiy Paderevskiy, aksincha, o'zining ajoyib pianinohilik Yutuqlarining siri nimada ekanligi haqidagi savolga javob bera turib aytadi: «Bir foiz talant, to'qqiz foiz omad va 90 foiz mehnat».

Taniqli amerikalik kashfiyotchi Tomas Edisonning buYuklik – bu 99 foiz mehnat va bir foiz ilhom degan so'zlari mashhurdir.

Amerikalik psixolog Artur Djensen ta'kidlashicha, har bir kishi qattiq mehnat jarayonida o'z qobiliyatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishi mumkin. Lekin qobiliyatlarni faqat ma'lum bir chegaragacha, tabiat imkon berguncha rivojlantirish imkoniyati bor. Kishi qattiq va fidokorona mehnat natijasida buYuk bo'lib qomaydi, buYuklik unga berilgan tabiat in'omi bo'lib hisoblanadi.

Mashhur ingliz psixologi Gans Ayzenk o'zining ko'p yillik tadqiqotlari natijasida shunday xulosaga kelgan, talant muvaffaqiyati tizimida genetik omillar 80 foizni tashkil etadi. Nutqiy qobiliyatlar, xotira, tasavvur, hisobga olish qobiliyatlari genetik asosga ega. 20 foizi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq, ularga oiladagi, maktabdagi sharoit, omad va baxtli tasodiflar kiradi. Genetik va ijtimoiy omillarning bu munosabatini tajribaviy yo'l bilan tekshirib ko'rish mushkul.

Gal'ton Yuqorida eslatilgan kitobida ijodning bir yoki boshqa turi bo'yicha qobiliyatlar avloddan-avlodga o'tgan ba'zi oilalarni misol keltiradi. Xususan, Bax avlodlarida musiqiy iqtidor ilk bor 1550 yilda kuzatilgan va besh avloddan so'nggina I.S.Bax dahosida bir muncha kuchliroq namoyon bo'ldi. Baxlar oilasida 60 ga yaqin musiqachi bo'lgan; ularning 20 ga yaqini mashhur deb tan olingan. Mosart ajdodlari orasida 5 nafar, Gaydnda esa ikkita musiqachi bo'lgan.

### **Teplov B.M. «Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi»**

(VIII bo'lim. Asosiy musiqiy qobiliyatlar)

Musiqiy-pedagogik amaliyotda asosiy musiqiy qobiliyatlar deganda odatda uch narsa tushuniladi: musiqiy eshitish qobiliyati, ritm hissi va musiqiy xotira.

Musiqiy eshitish qobiliyati iborasiga odatda juda keng va etarlicha aniqlanmagan mazmun kiritiladi. Avvalo, musiqiy eshitish qobiliyati tushunchasini tovushlarning past-balandligini eshitish va tembrni his qilish tushunchasiga ajratish zarur. Negaki, musiqada tovushlar past-balandligi va ritmik harakatlar asosiy ma'no tashuvchi bo'lib hisoblanadi. Tembrli unsur juda muhim, biroq yordamchi ahamiyatga ega. Biz musiqa negizini tashkil etgan asosiy musiqiy qobiliyatlar sifatida tovushlar past-balandligini va ritmik harakatlarni idrok etish va yaratishni tushunishimiz kerak.

Musiqiy idrokning asosiy shakllarini tahlil eta turib kuy va garmoniya idrokini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular asosida 2 ta qobiliyat yotadi: a) musiqiy eshitish qobiliyatining



perseptiv yoki emosional qismi deb ataluvchi lad hissi, b) musiqiy uquvning reproduktiv yoki idrok etish qismi bo‘lib hisoblanuvchi musiqiy eshitish tasavvuri qobiliyati.

Tahlil asosida uch asosiy musiqiy qobiliyatni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) Lad hissi, ya’ni kuy, tovushlarning lad vazifasini emosional his qilish yoki tovush past-balandlik harakatlari ifodaliligini emosional his qilish qobiliyati. Bu qobiliyatni boshqacha atash mumkin – musiqiy eshitish qobiliyatining emosional yoki perseptiv qismi (komponenti).

Lad hissi musiqiy balandliklarni, ya’ni tembr balandliklarini his etish bilan bo‘linmas butunlikni tashkil etadi. Lad hissi bevosita kuyni qabul qilish, uni anglash, intonasiyalar aniqligini his qilish jarayonida namoyon bo‘ladi. U ritm hissi bilan bir qatorda musiqaga bo‘lgan asosiy emosional mehr-munosabatni tashkil qiladi.

2) Eshitish tasavvuriga qobiliyatli bo‘lish ixtiyoriy tarzda ovoz balandligi harakatini aks ettiruvchi eshitish tasavvurlaridan foydalanishdir. Bu qobiliyatni, boshqacha qilib, musiqiy eshitish qobiliyatining tinglash yoki reproduktiv (ijro etish) qismi deb atash mumkin. U bevosita eshitish hissi bo‘yicha kuyni eshitish, kuylash jarayonida namoyon bo‘ladi. U lad hissi bilan birgalikda garmoniya hissining asosini tashkil etadi. Bu qobiliyat musiqiy xotira va musiqiy tasavvurning asosiy yadrosidir.

3) Musiqiy-ritmik his, ya’ni musiqani faol (harakatli) boshdan kechirish, musiqiy ritm ifodaliligini emosional his etish va uni aniq ijro etish qobiliyati.

Musiqiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar majmuasi, albatta, uchta qobiliyat bilan yakunlanmaydi. Lekin ular musiqiylikning asosiy negizini tashkil etadi.

Musiqiylikning asosiy belgisi – ma’lum bir mazmun ifodasini his eta olishdir. Musiqada tovushlarning past-balandligi va ritmik harakatlar asosiy mazmun tashuvchi bo‘lib hisoblanadi. Tovushlar past-balandligini his etish va ritmik harakatlarning ifodali mazmunini boshdan kechirish asosida sanab o‘tilgan uch qobiliyat yotadi.

Barcha tadqiqotchilarning yakdil fikriga ko‘ra, musiqiy qobiliyat boshqa har qanday qobiliyatdan ertaroq paydo bo‘la boshlashi mumkin. Asosli ma’lumotlar buni to‘la tasdiqlaydi: alohida vaziyatlarda har uch musiqiy qobiliyatning ilk bor namoyon bo‘lishi hayotning birinchi yilidayoq kuzatiladi. Uch yoshda kuy eshitish va ritm hissiyoti etarlicha baland rivojlanishini kuzatish mumkin.

Musiqiy qobiliyatning erta namoyon bo‘lishi, shubhasiz, yaxshi musiqiy iqtidor ko‘rsatkichlaridan biridir. Ammo erta namoyon bo‘lmaslikni musiqiy qobiliyatning sustligi yoki yo‘qligining qaysidir darajadagi ko‘rsatkichi, deb hisoblash hech ham mumkin emas.

<sup>2</sup>ozirgi paytda bolalarda musiqiy qobiliyatning turlicha rivojlanishi qanday sabablarga asoslanishi haqidagi savolga tugal bir javob berish qiyin. Bu sabablar, shubhasiz, juda xilma-xil va bola shaxsiyatining turli taraflari hamda uning tarbiyalanishining butun tarixiga bog‘liq.

## QOBILIYATNI ANIQLASH.

## TESTLAR

**Qobiliyatning namoyon bo'lishi va uning testi**

Ko'pchilik yosh musiqachilar uchun ixtisoslashish juda muhim hisoblanadi. Musiqachi tomonidan tanlanayotgan mutaxassislik uning temperamenti va xarakteri psixodinamik xususiyatlariga mos kelishi kerak. Bir faoliyat turi uchun afzal temperament sifatlari boshqasi uchun foydasiz bo'lib chiqishi mumkin. Musiqachining u yoki bu mutaxassislikni tanlashiga mutlaq musiqiy qobiliyat emas, aksincha neyrotizm, introversiya va ekstroversiya kabi psixologik ko'rsatkich, bosh miyaning o'ng yoki chap yarim shari ustunligi turtki berishi mumkin. Musiqa o'qituvchisi, konsert ijrochisi, xor yoki orkestr artisti, kompozitor, dirijyor, musiqashunos, nazariyotchi kabi musiqa yo'nalishi mutaxassislari turli psixologik sifatlarni talab etadi. Lekin bunga, afsuski, etarlicha e'tibor berilmaydi.

O'z temperamenti xususiyatlari va shaxsiyatini tushunishi uchun musiqachilarga maxsus psixologik testlar va so'rovnomalar yordam berishi mumkin. Ayzenk, Kettel, LYuter, Leongard, Teylor testlari va hajman u qadar katta bo'lmagan sodda testlar yosh musiqachining kasb nuqtai nazaridan bir qarorga kelishi muammosini engillashtirib, ijtimoiy o'rnini topishga yordam beradi.

Ayzenk tomonidan tavsiya etilgan testlar (qarang, testlar) shaxsiyatda neyrotizm darajasi va ekstraversiya–introversiya omillarining namoyon bo'lishini o'rganishga qaratilgan. Neyrotizm darajasi Yuqori bo'lgan insonlar jizzaki, asabiy, hissiyotli, betoqat va xavotirchan bo'ladi. Neyrotizm darajasi past odamlar muvozanati, og'ir-bosiq, o'ziga Yuqori baho berishi bilan ajralib turadi.

Ekstravertlar kelishuvchanligi, tashqi olam bilan muomala qilishga moyilligi, ijtimoiy muhitga oson moslashuvchanligi bilan farqlanadi. Lekin ular ortiqcha qiziqqon, hissiyotlarda Yuzaki va o'ylanmagan xatti-harakatlarni sodir etishga moyil bo'lishlari mumkin. Introvertlar o'z shaxsiy dunyosiga o'ralib qolgan, pisman, yolg'izlikka moyil bo'ladi. Ular kelishuvchan emas, ammo qat'iyatli, hissiyotli va teran fikrlaydi.

Introversiya bilan Yuksak neyrotizm uyg'unlashganlarga faol muloqot qilish bilan bog'liq mutaxassisliklar tavsiya etilmaydi. Ularga nazariy musiqashunoslik, kompozitorlik ijodi, musiqiy muharrirlik kabi tadqiqot ishlari mos keladi.

Ekstraversiya bilan Yuksak darajadagi neyrotizm uyg'unlashgan insonga o'z talabini intensiv muloqot jarayonida qondira oladigan mutaxassisliklar to'g'ri keladi. Bu – xor, orkestr, ansamblda ishlash. Agar neyrotizm darajasi u qadar Yuqori bo'lmasa pedagogik faoliyat maqbul.

Past darajadagi neyrotizmga ega introvertlarga tashkilotchilik va boshqarish bilan bog'liq ma'muriy faoliyat, tadqiqotchilik va muharrirlik ishlari, shuningdek, musiqa cholg'ularini tayyorlash, sozlash ishlarini tavsiya qilish mumkin.

Neyrotizmi past darajada bo'lgan ekstravertlar yaxshi tashkilotchi, dirijyor, konsert ijrochilari bo'lishi mumkin.

Bularning barchasi tavsiya, ularni mutlaq aniq ko'rsatma deb tushunmaslik lozim.

Musiqachining o'zini o'zi tarbiyalashi va o'z ustida tirishqoqlik bilan ishlashi unga yoqqan yoki hayot taqozosi bilan qilishiga to'g'ri kelgan ishlarni bajarishi uchun etishmaydigan psixologik sifatlarni qoplab ketishiga oid hayotiy misollar ko'p.

Tavsiya etilayotgan testlar musiqiy faoliyatning aniq turlaridagi mashg'ulotlar uchun rag'bat ko'rsatishga yo'naltirilgan. SHunisi aniqki, estrada ijrochisi uchun zarur xususiyatlar pedagog yoki musiqa nazariyotchisi uchun kerak bo'lmasligi mumkin. SHunday qilib, yakkaxon konsert sohasiga ixtisoslashishni istovchilar uchun o'z talantini omma oldida namoyon qilish

xohishi, musiqiy asarni puxta pardoqlashga intilish, boshqalar bilan raqobatlashishga ehtiyoj kabi xususiyatlar muhim. Pedagogik faoliyat sohasida ixtisoslashish uchun ommani uYushtirish va o'z ortidan ergashtira olish, kelishuvchanlik, bolalarga muhabbat, ta'lim uslubiyotini yaxshi ko'rish ko'proq ahamiyatga ega.

Musiqashunoslik faoliyati uchun tahliliy va obrazli fikrlash qobiliyati, o'z fikrlari va hissiyotlarini yaxshi adabiy til bilan etkazib bera olish muhim hisoblanadi. Toki potensial tinglovchi (bilimdon yoki havaskorlar) musiqashunos ishi bilan tanishgandan so'ng yana bir bor musiqaga murojaat qilishni istasin.

Kompozitor uchun o'z imkoniyatlarini namoyish etish, boshqalar bilan muloqot emas, o'zining hayotiy taassurotlarini musiqiy obrazlar tiliga ko'chirishga intilish muhimdir.

Psixologlar A.Kemp va P.Martin, Ayzenk va Kettel testlari yordamida musiqiy kollej talabalari shaxsiyati xususiyatlarini tadqiq etishgan. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, torli musiqa cholg'ulari bo'limi o'quvchilari – skripkachilar, al'tchilar, violonchelchilar uchun intravertivlik, uyatchanlik, o'zidan qoniqish kabi xususiyatlar xosdir. Devis ma'lumotlariga ko'ra, bu xususiyatlarga Yuqori darajadagi xavotirchanlik ham qo'shiladi. Puflab chalinadigan mis musiqa cholg'usi bilan shug'ullanuvchi talabalarda tadqiqotchilar Yuqori bo'lmagan intellektual muvaffaqiyatlar darajasi, kam hissiyotlilik, guruh fikriga bog'liq bo'lish, ya'ni konformizm, boshqalar fikriga qo'shilish tendensiyasini aniqlagan.

Pianinohilarni tekshirishda nisbatan xilma-xil shaxsiy xususiyatlar aniqlangan. Ularga ekstravertivlik, ijtimoiy talablarga moslashuvchanlik, odatlar va qarashlarda konservatizm, o'zini urintirmaslik, ziyraklik xosdir. Xonandalarda, Kemp ma'lumotlariga ko'ra, ekstravertivlik, mustaqil fikrlash, yaqqol namoyon bo'luvchi hissiyotlilik, mahoratlilik va norozilik aniq namoyon bo'ladi.

O'z psixik ahvolini tekshirish uchun Spilbergerning xavotirchanlikni aniqlash bo'yicha testidan (qarang: testlar) foydalanish mumkin. Test orqali o'lgangan xavotir darajasi qancha Yuqori bo'lsa, hayotdan qoniqish shunchalik kam va qandaydir kasallikka chalinish ehtimoli ko'p bo'ladi. YUqori xavotirchanlik darajasi ijroda ko'pincha ritmik tomonga zarar etkazadi, ommaviy chiqishlarda esa keraksiz uzilishlar bo'lishi mumkin. YUqori xavotirchanlik odatda kompozitorlik, ijrochilik va pedagogik faoliyatiga xalaqit beruvchi baland emosionallik bilan bog'liq bo'ladi.

Musiqachi qanday tabiiy qobiliyatga ega bo'lmasin, u ham xuddi hayotda nimagadir erishmoqchi bo'lgan har qanday odam kabi ichki va tashqi g'ovlarni engib o'tishi uchun irodaviy kuch sarflashiga to'g'ri keladi. Lekin ko'pincha ijobiy sifatlarga ega bo'lishni istagan holda u o'ziga yoqimli va qulay bo'lgan nuqsonlaridan voz kechgisi kelmaydi. YAAlqovlik, serjahllik, uyatchanlik, bo'shanglikni engish juda ko'p mehnatni, mehnat irodani, iroda esa katta xohishni talab etadi. SHu erda A. Navoiy hikmatlaridan yana bir bor keltirib o'tish o'rinli bo'ladi:

*Tabiatga har neki odat bo'lur,  
CHu eskirdi odat tabiat bo'lur.*

Xarakterning istalgan sifatini tarbiyalashdagi birinchi qadam – shaxsiyatdagi irodaning rivojlanganlik darajasini anglashdir. Test bunga yordam beradi.

Testlarni tatbiq etish o'quvchilarga o'z shaxsiyatidagi xususiyatlarni chuqurroq anglash, kasb tanlashdek murakkab muammoning echimini oson topish, o'z shaxsiyatining kuchli va ojjiz tomonlarini chuqurroq bilib olish imkonini beradi. (Quyidagi testlar ushbu kitobga muvofiq beriladi: Petrushin V.I. Muzo'kal'naya psixologiya, M., 1997).

## PSIXOLOGIK TESTLAR

### Neyrotizm va ekstraversiya darajasining namoyon bo'lishiga oid Ayzenk testi

1. Yangi taassurotlarga, ko'ngil ochishga, hayajonlanishga intilasizmi?
2. Sizni tushunadigan, tetiklashtira oladigan yoki tasalli beradigan do'stlarga tez-tez ehtiyoj sezasizmi?
3. O'zingizni beozor odam deb hisoblaysizmi?
4. O'z maqsadlaringizdan voz kechishingiz juda qiyinmi?
5. Bir narsa qilishdan avval shoshmasdan o'ylab ko'rishni ma'qul ko'rasizmi?
6. O'zingizga befoyda ekanligiga qaramay har doim va'dangizning ustidan chiqasizmi?
7. Kayfiyatingiz tez-tez ko'tarilib va tushib turadimi?
8. O'ylab o'tirmay, tez gapirasizmi?
9. Qachondir, garchi buning uchun jiddiy sabab bo'lmasa ham, o'zingizni baxtsiz odam deb his qilganmisiz?
10. Agar ish bahslashishgacha borib etsa, hamma narsaga tayyor bo'lib qolishingiz to'g'rimi?
11. Kelishgan yigit (qiz) bilan gaplashmoqchi bo'lganingizda hayajonlanasizmi?
12. Xafa bo'lib o'zingizni tutolmay qolgan paytingiz bo'ladimi?
13. Tez-tez tavakkal qilasizmi?
14. Biror narsani qilish yoki gapirmaslik kerak edi, degan xayollar sizni tez-tez qiynaydimi?
15. Siz mashhur kishilar haqidagi kitoblarni yoqtirasizmi?
16. Sizni ranjitib qo'yish oson, to'g'rimi?
17. Davralarda tez-tez bo'lishni yaxshi ko'rasizmi?
18. Boshqa odamlar bilishini istamagan xayollaringiz bormi?
19. Ba'zan kuchga to'la, ba'zan esa umuman lanjsiz, to'g'rimi?
20. Kamroq, lekin yaqinroq do'stlaringiz bo'lishini istaysizmi?
21. Ko'p orzu qilasizmi?
22. Sizga baqirishsa, siz ham xuddi shunday javob qaytarasizmi?
23. Aybdorlik hissi sizni ko'p qiynaydimi?
24. Odatlaringizning barchasi yaxshi va ma'qulmi?
25. 2issiyotlaringizga erk berib, sershovqin davrada ko'ngil yozishga qodirmisiz?
26. Siz haqingizda asablari ko'pincha haddan tashqari tarang bo'ladi, deyish mumkinmi?
27. Tetik va quvnoq odamlardan o'zingizni chetga tortasizmi?
28. Ishni bajarib bo'lgandan so'ng ko'pincha xayolan yana ishga qaytib, yaxshiroq qilishim mumkin edi deb o'ylaysizmi?
29. Davradaligingizda odatda o'zingizni xotirjam his etasizmi?
30. Mish-mish tashigan paytlaringiz bo'lganmi?
31. Xayolingizga har xil fikrlar kelaverganidan uxlolmagan paytlaringiz bo'lganmi?
32. Biror narsa haqida bilmoqchi bo'lsangiz, bu haqda do'stlaringizdan so'ragandan ko'ra kitobdan o'qishni ma'qul ko'rasizmi?
33. YUragingiz tez-tez urib ketgan paytlar bo'lganmi?
34. Zo'r diqqat talab etuvchi ish sizga yoqadimi?
35. Titrash xuruji bo'ladimi?
36. Agar aytganlaringiz hech qachon fosh bo'lmasligini bilsangiz, har doim hammabop ruhda gapirgan bo'larmidingiz?
37. Bir-birining ustidan hazil qiladigan kishilar davrasida bo'lish siz uchun yoqimsizmi?
38. Serzardamisiz?
39. Tez harakat qilishni talab qiladigan ish yoqadimi?
40. 2ammasi yaxshi tugaganiga qaramay, yomonlik va dahshatlar haqidagi xayollar sizga tinchlik bermasligi to'g'rimi?
41. Siz sustkash va bamaylixotirmisiz?

42. Uchrashuv yoki ishga qachondir kech qolasizmi?
43. Tez-tez dahshatli tush ko'rasizmi?
44. Suhbatlashishni shu darajada yaxshi ko'rasizki, hatto notanish odam bilan gaplashish uchun qulay fursatni boy bermaysiz, bu to'g'rimi?
45. Qandaydir og'riqlar bezovta qiladimi?
46. O'z tanishlaringiz bilan uzoq vaqt ko'rishmasangiz, o'zingizni baxtsiz deb his qilasizmi?
47. O'zingizni asabiy odam deb atay olasizmi?
48. Siz bilgan odamlar ichida sizga aniq yoqmaydigan kishilar bormi?
49. O'zingiz haqingizda o'ziga ishongan inson, deb ayta olasizmi?
50. Kamchiliklaringiz yoki ishdagi nuqsonlaringizni tanqid qilib sizni ranjitish osonmi?
51. Bayram kechasida haqiqatdan xursand bo'lish qiyin, deb hisoblaysizmi?
52. Boshqalarga nisbatan yomonroqman, degan fikr bezovta qiladimi?
53. Zerikarli davraga quvnoq ruh olib kirish siz uchun osonmi?
54. Umuman tushunmagan narsalaringiz haqida gapirgan paytlaringiz bo'lganmi?
55. O'z sog'lig'ingizdan tashvishlanasizmi?
56. Boshqalarga hazil qilishni yoqtirasizmi?
57. Uyqusizlikdan aziyat chekasizmi?

**Javoblar kaliti** (birinchi jadval):

- E – ekstraversiya  
 N – neyrotizm  
 YO – yolg'on

*Birinchi jadval*

Savol tG'r	« <sup>2</sup> a» javobi	«Yo'q» javobi	Savol tG'r	« <sup>2</sup> a» javobi	«Yo'q» javobi	Savol tG'r	« <sup>2</sup> a» javobi	«Yo'q» javobi
1	e		20		e	39	e	
2	n		21	n		40	n	
3	e		22	e		41		e
4	n		23	n		42		yo
5		e	24	yo		43	n	
6	yo		25	e		44	e	
7	n		26	n		45	n	
8	e		27	e		46	e	
9	n		28	n		47	n	
10	e		29		e	48		yo
11	n		30		yo	49	e	
12		yo	31	n		50	n	
13	e		32		e	51		e
14	n		33	n		52	n	
15		e	34		e	53	e	
16	n		35	n		54		yo
17	e		36	yo		55	n	
18		yo	37		e	56	e	
19	n		38	n		57	n	

SHkala bo'yicha ballar hisobida yolg'on beshtadan ko'p bo'lsa, javoblar shubhali hisoblanadi va anketa javoblari ishonchsiz hisoblanadi.

Javoblar omillar bo'yicha jadvalga kiritiladi. Jadvalda neyrotizm o'lchami vertikal o'qda, ekstraversiya-intraversiya esa gorizontaal o'qda joylashgan. 2-ar ikkala o'q 0 dan 24 gacha bo'lgan gradasiyaga ega.

## SHaxsiyat aksentuatsiyasining<sup>18</sup> namoyon bo'lishiga oid SHmishek testi

1. Hech qachon g'amgin bo'lasizmi?
2. Xafagarchilik va dilsiyohlikka nisbatan sezgirmisiz?
3. Oson yig'laysizmi?
4. Ishdan so'ng uning sifati haqida shubha paydo bo'lmaydimi? Uni tezda tekshirib ko'rishga kirishib ketasizmi?
5. Bolaligingizda tengdoshlaringiz kabi botirmidingiz?
6. Juda quvnoq kayfiyatdan juda qayg'uli kayfiyatga tushib qolish hollari bo'ladimi?
7. Jamoatchilik orasida diqqat markazida bo'lishni yoqtirasizmi?
8. 2ech qanday sababsiz g'azablangan kunlaringiz bo'lganmi?
9. Jiddiy insonmisiz?
10. Zavqlanishga, qoyil qolishga qodirmisiz?
11. Uddaburonmisiz?
12. Kimnidir xafa qilib qo'ysangiz tezda esdan chiqarasizmi?
13. YUmshoq ko'ngilmisiz?
14. Pochta qutisiga xat tashlab, tushganligi yoki tiqilib qolganligini tekshirib ko'rasizmi?
15. Izzatlablik tufayli eng yaxshilar qatorida yoki eng yaxshi bo'lishga harakat qilasizmi?
16. Bolaligingizda momaqaldiraq va itlardan qo'rqanmisiz?
17. Boshqa odamlar sizni bachkana deb hisoblaydilarmi?
18. Sizning munosabatingiz tashqi shart-sharoitlarga bog'liqmi?
19. Barcha tanishlaringiz sizni yaxshi ko'radimi?
20. Gohida bo'lib turadigan ruhiy zo'riqish, ichki bezovtalikka moyilmisiz?
21. Kayfiyatingiz biroz tushkunmi?
22. Og'ir kayfiyatni boshdan kechira turib, dodlab yig'laganmisiz?
23. Bir joyda uzoq turib qolish siz uchun qiyinmi?
24. Sizga nisbatan adolatsizlik qilinganda o'z manfaatlaringizni qizg'in himoya qilasizmi?
25. Tirik qushni so'ya olasizmi?
26. Parda yoki dasturxonning noto'g'ri turgani jahlingizni chiqaradimi?
27. Bolaligingizda uyda yolg'iz qolishga qo'rqarmidingiz?
28. Sababsiz kayfiyatingiz o'zgaradimi?
29. O'z kasbiy sifatlaringiz bilan eng yaxshilardan biri bo'lib hisoblanasizmi?
30. Jahlingiz oson chiqadimi?
31. SHO'x va quvnoq bo'lishga qodirmisiz?
32. Baxtdan boshingiz aylangan holatlar bo'lganmi?
33. Kimgadir u haqdagi fikringizni to'g'ridan-to'g'ri ayta olasizmi?
34. Jamoatchilikning ko'nglini olib, davraning joni bo'la olasizmi?
35. Qon ko'rsangiz qo'rqasizmi?
36. Katta mas'uliyatli ishga bajonidil bel bog'laysizmi?
37. Adolatsizlik qilinayotgan kishilar tarafdori bo'la olasizmi?
38. Qorong'u erto'laga tushish, bo'm-bo'sh, yoritilmagan xonaga kirish sizni tashvishlantiradimi?
39. Unchalik serdiqqat va izchil bo'lmagan, asta-sekinlik va aniqlikni talab etuvchi faoliyatni ma'qul ko'rasizmi?
40. Dilkash odammisiz?
41. Maktabda she'rlarni bajonidil ifodali o'qib berarmidingiz?
42. Bolaligingizda uydan qochib ketarmidingiz?

<sup>18</sup> SHaxsiyat aksentuatsiyasi – ma'lum bir shaxsiy xususiyatni alohida ko'rsatish (urg'u berish).

43. 2ayot murakkabdek tuYuladimi?
44. Biror ziddiyat, janjaldan so'ng xafa bo'lib, undan so'ng ishga, o'qishga borngiz kelmagani paytlaringiz bo'lganmi?
45. Omadsizlikda ham Yumor hissini yo'qotmayman, deb ayta olasizmi?
46. Kimnidir xafa qilib qo'ysangiz, yarashib olishga harakat qilasangizmi?
47. 2ayvonlarni yaxshi ko'rasizmi?
48. Uydan keta turib, qaytib kelib hech narsa bo'lmaganmikin deb, tekshirib ko'rgan paytlaringiz bo'lganmi?
49. O'zingiz yoki ota-onangizga biror narsa bo'lmaganmikin degan xayol sizni ba'zan bezovta qiladimi?
50. Kayfiyatinigiz ob-havoga qarab o'zgaradimi?
51. Sahna yoki minbarda katta auditoriya oldida chiqish siz uchun qiyinmi?
52. Kimdandir jahlingiz chiqsa, qo'lingizga erk berasizmi?
53. Davralarda bo'lish yoqadimi?
54. Ko'nglingiz qolishi ta'siri ostida umidsizlikka tushib qolishingiz mumkinmi?
55. Tashkilotchilik faoliyatini yoqtirasizmi?
56. Agar yo'lingizda ko'p to'siqlar uchrasa, o'z maqsadingizga etishish uchun matonat ko'rsatasizmi?
57. Fojiali fil'm ko'zlarinigizga yosh qalqiydigan darajada sizni hayajonlantirishi mumkinmi?
58. Kallangiz kunduzgi tashvishlar bilan bandligi sababli uxlash qiyin bo'ladimi?
59. Sinfdoshlarinigizga aytib turganmisiz yoki ko'chirishga berganmisiz?
60. Notanish ko'chadan qorong'ida o'tishingiz kerakligi sizni tashvishlantiradimi?
61. Uyingizdagi har bitta buYum o'z o'rnida turishini nazorat qilasangizmi?
62. Ruhingiz tushib uyquga ketib, ertalab esa bo'g'iq va ma'Yus kayfiyatda uyg'ongan paytlaringiz bo'ladimi?
63. YAngi vaziyatga oson moslashasizmi?
64. Bosh og'rig'iga duchor bo'lganmisiz?
65. Tez-tez kulib turasangizmi?
66. 2ech narsaga arzimaydigan odam, deb bilgan kishilarinigizga ular buni payqamaydigan darajada muomala qila olasizmi?
67. O'zingizni chaqqon va uddaburon odam deb hisoblaysizmi?
68. Adolatsizlikdan aziyat chekasizmi?
69. Tabiatni sevasizmi?
70. Uydan chiqib ketayotib yoki uyquga ketish oldidan gaz va elektr o'chirilganligini tekshirasizmi?
71. Qo'rqoqmisiz?
72. Alkogol' ta'sirida kayfiyatingiz o'zgaradimi?
73. Drama to'garaklarida ishtirok etganmisiz?
74. Biror noma'lum qiziqarli narsaga moyillik his etasangizmi?
75. Kelajakka pessimistik munosabatdamisiz?
76. Kutilmaganda katta quvonchdan chuqur qayg'uga tushgan paytlaringiz bo'lganmi?
77. Odamlar bilan muloqotda ma'lum bir kayfiyat yarata olasizmi?
78. G'azab, alamni uzoq saqlaysizmi?
79. Boshqa insonlar g'amiga uzoq vaqt qayg'urasizmi?
80. Maktab yillarida siyoh dog'i tufayli butun daftarni boshqatdan ko'chirib chiqa olarmidingiz?
81. Odamlarga ishonishdan ko'ra, ko'proq ehtiyotkorlik va ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lasiz deb aytish mumkinmi?
82. Qo'rqinchli tushlarni tez-tez ko'rasizmi?
83. Gohida miyangizga Yurib ketayotgan poezd g'ildiraklari tagiga o'zingizni tashlash yoki Yuqori qavatda joylashgan uy derazasidan sakrash fikri kelib qoladimi?

84. Quvnoq odamlar davrasida xursand bo‘la olasizmi?  
 85. Og‘ir muammolar haqida doim o‘ylayvermaslik uchun ulardan etarlicha chalg‘iy olasizmi?  
 86. Kutilmagan yoki impul’siv harakatlarni amalga oshirasizmi?  
 87. Suhbatda siz sergapmisiz yoki kamgapmisiz?  
 88. Teatr namoyishida sahnadaligingizni unutar darajada rolga kirib keta olasizmi?

### Qayta ishlash

YArim tayyor ballar mos kelgan ijobiy va salbiy javoblar soni bo‘yicha hisoblanadi. Keyin esa normalashtiruvchi koeffisientga ko‘paytiriladi. So‘ngra grafik chiziladi – absissa o‘qi bo‘yicha shkala raqamlari, ordinata bo‘yicha – qo‘lga kiritilgan ish ballari joylashtiriladi. 14-15 dan baland ko‘rsatkich aksentuasiya belgisi bo‘lib hisoblanadi. Ko‘paytirilgandan so‘ng maksimal ballar miqdori – 24.

Aksentasiya turi	Savollarga javob <sup>19</sup>	Normalashti-ruvchi koeffisient
1. Gipertim	1, 11, 23, 34, 45, 55, 67,77	3
2. Turib qoluvchi	2, -12, 15, 24, 33, 37, -46, 56, -59, 68, 78, 81	2
3. Emotiv	3,13, -25, 35, 47, 57, 69, 79	3
4. Bachkana	4, 14, 17, 26, -36, 39, 48, 58, 61, 70, 80, 83	2
5. Bezovta	-5, 16, 27, 38, 49, 60, 71, 82	3
6. Siklotim	6, 18, 28, 40, 50, 62, 72, 84	3
7. Namoyishkorona	7,19, 22, 29, 41, 44, -51, 63, 66, 73, 85, 88	2
8. <sup>2</sup> ayajonlanadigan	8, 20, 30, 42, 52, 64, 74, 86	3
9. Distimik	9, 21, -31, 43, -53, -65, 75, 87	3
10. G‘oyat shod	10, 32, 54, 76	6

### Bezovtalikni aniqlashga oid test (Spilberger bo‘yicha)

Ikkinchi jadvalda keltirilgan jummalarni diqqat bilan o‘qib chiqing va o‘zingizni qanday his qilishingizga qarab o‘ng tomondagi mos raqamni chizib qo‘ying. Savol ustida ko‘p o‘ylamang, negaki to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar yo‘q.

<sup>19</sup> Manfiy-salbiy, usiz-ijobiy.



Ikkinchi jadval

tG' r	Jumla	De-yarli hech qachon	Ba'-zan	Ko'-pincha	De-yarli har doim
1	Men qoniqish his etaman	1	2	3	4
2	Men tez charchayman	1	2	3	4
3	Tezda yig'lab Yuborishim mumkin Boshqalarday baxtli bo'lmoqchiman	1	2	3	4
4	Men tezda qaror qabul qila olmaganim uchun Yutqazib qo'yaman	1	2	3	4
5	O'zimni tetik his etaman Men xotirjam, sovuqqon va o'zimni tutib olganman	1	2	3	4
6	Qiyinchiliklarni kutish meni xavotirga soladi	1	2	3	4
7	Mayda-chuydalarni deb haddan tashqari ko'p qiynalaman	1	2	3	4
8	Men g'oyatda baxtliman 2amma narsani dilimga yaqin olaman	1	2	3	4
9	Menda o'zimga ishonch etishmaydi Men o'zimni xavfsiz his etaman	1	2	3	4
10	Men tanqidiy vaziyatlar va qiyinchiliklarni	1	2	3	4
11	chetlab o'tishga harakat qilaman Ma'Yus bo'lib qolaman	1	2	3	4
12	2ayotdan qoniqaman Turli mayda-chuydalar meni chalg'itadi va	1	2	3	4
13	hayajonlantiradi Hafsalam pir bo'lsa, esdan chiqarolmayman	1	2	3	4
14	Men vazmin odamman O'z ish va tashvishlarim haqida	1	2	3	4
15	o'ylaganimda qattiq xavotirlanaman	1	2	3	4
16		1	2	3	4
17		1	2	3	4
18		1	2	3	4
19		1	2	3	4
20		1	2	3	4

Ballarni hisoblash quyidagi usul bilan amalga oshiriladi: 2, 3, 4, 5, 8, 9, 11, 12, 14, 15, 17, 18, 20 savollarga berilgan javoblar miqdoridan 1, 6, 7, 10, 13, 16, 19 savollarga berilgan javoblar miqdori ayriladi. Kelib chiqqan farqqa 35 soni qo'shiladi. Spilberger shkalasi bo'yicha jami ko'rsatkich quyidagilarni anglatadi: 30 ballgacha – past bezovtalik darajasi, 30 dan 45 gacha – o'rta daraja, 45 dan Yuqori – Yuqori bezovtalik darajasi.

### **SHaxsiyatdagi iroda xususiyati shakllanganlik darajasining namoyon bo'lishiga oid test**

(Natijalarni qayta ishlash metodikasi testlar oxirida beriladi).

2ar bir savol uchun keyingi ballar beriladi: 1 – bunday bo‘lmaydi; 2 – balki, ehtimol; 3 – bo‘lishi mumkin; 4 – ehtimol, ha; 5 – ishonamanki, ha.

### *Maqsadga yo‘nalganlik*

1. Aniq maqsad va vazifalar qo‘ya bilish:
  - a –kasbiy mahoratni oshirish bo‘yicha 3-4 yil oldin mo‘ljallangan aniq istiqbolli maqsadga egaman;
  - b – kelgusi yil uchun o‘qituvchim bilan hamkorlikda muvaffaqiyatlar darajasini rejalashtiryapman; tayyorgarlikning tegishli bosqichlari uchun aniq vazifalar qo‘yaman;
  - v – navbatdagi mashg‘ulot, sinov va imtihonlar uchun galdagi vazifalarni qo‘yaman.
2. O‘z faoliyatini muntazam amalga oshira olish:
  - a – alohida uy vazifalari rejalarini bajaraman;
  - b –va imtihon topshirish rejalarini bajaraman;
  - v – o‘tkazilgan mashg‘ulotlar, o‘tgan sinov va imtihonlarni baholayman; belgilangan rejalarini tahrir qilaman.
3. Qo‘yilgan maqsadlarga etishish uchun o‘zini yo‘naltira bilish:
  - a – maqsadga erishish uchun qat’iy tartibga amal qilaman;
  - b – kasbiy ko‘tarilish maqsadi va vazifasi men uchun kuchli faollik manbasi bo‘lib hisoblanadi;
  - v – o‘zimning musiqiy mashg‘ulotlarim jarayonidan katta qoniqish his etaman.

### *Qat’iyat va matonat*

4. Qo‘yilgan maqsadga muntazam erisha olish:
  - a – men musiqiy cholg‘uda muntazam shug‘ullanaman va dars uchun mo‘ljallangan soatlarim miqdorini qat’iy kuzatib boraman;
  - b – o‘yin harakatlari texnikasini puxta egallashga diqqat bilan, muntazam harakat qilaman;
  - v – professional mahoratimdagi kamchiliklarimni qat’iylik bilan ketma-ket bartaraf etishga harakat qilaman.
5. YOmon kayfiyatni bartaraf qilish:
  - a – charchash hissi ortib borganda men sabr qilaman va ish sur‘atini pasaytirmasdan mashg‘ulotni davom ettiraman;
  - b –kayfiyatim yomon bo‘lsa-da, «istamayman» yoki «qilolmayman»lardan o‘tib, o‘zimni faoliyatga undayman;
  - v – zerikarli, lekin kerakli mashqlarni sabr bilan va uzoq muddat qaytarishim mumkin.
6. Omadsizlik va boshqa qiyinchiliklarga qaramay faoliyatni davom ettira bilish:
  - a – asar ijrosidagi omadsizlik meni maqsadga erishish – yaxshiroq chalishga safarbar etadi;
  - b – omadsizlik paytida o‘z mashg‘ulotlarimning davomiyligi bilan chalg‘ishga moyil bo‘laman;
  - v – imtihonda bir narsani muvaffaqiyatsiz ijro etib, men ruhan cho‘kmayman va keyingi asarlarni yaxshiroq chalishga harakat qilaman.

### *Dadillik va jasurlik*

7. O‘z vaqtida kerakli qarorni qabul qila bilish:
  - a – men paysalga solish mumkin bo‘lmagan paytda biror harakat, maqsad, ishni amalga oshirish haqida o‘z vaqtida qaror qabul qila olaman;

b – men tavakkal sharoitida ham zarur harakat haqida o‘z vaqtida qaror qabul qila olaman;

v – o‘z hamkasblarim (ansambl’ va orkestr) oldida ma’naviy mas’uliyat sharoitida o‘z vaqtida qaror qabul qila olaman.

8. Qo‘rquv hissini engib bilish:

a – mas’uliyatli chiqish paytida tavakkal qilish va ishni boshlash xohishi paydo bo‘ladi (tanlovda nisbatan tez sur‘atlarda ijro etishim mumkin);

b – mas’uliyatli chiqish paytida xayolan tashvishlarimdan soqit bo‘laman va diqqatimni butunlay o‘z ijro harakatlarimga qarataman;

v – ma’naviy mas’uliyat sharoitida ongli ravishda yomon kechinmalarni engib o‘taman va qat’iyat bilan harakat qilaman (betob solist o‘rniga partiyani ijro etib berishim mumkin).

9. Qabul qilingan qarorlarni rad etmasdan bajara bilish:

a – mas’uliyatli ishni (vazifani) bajarish haqida qaror qabul qilinganidan so‘ng zudlik bilan uni amaliy bajarishga kirishaman;

b – murakkab epizod yoki p‘esani o‘ynay boshlasam, hatto xatolarga yo‘l qo‘ysam ham, bu ishni bajarishda davom etaman, me‘yoriga etkazaman, oxirigacha ijro etaman;

v – murakkab narsalarni ijro etishdagi muvaffaqiyat-sizlik qayta harakat qilganda muvaffaqiyatga erishishga safarbar etadi.

### *Sabot va o‘zini tuta bilish*

10. Fikrlar tiniqligini saqlay bilish:

a – sinov yoki imtihonda ijro paytida hayajonli sharoitga qaramay diqqatimni yaxshi jamlay olaman, e‘tiborimni taqsimlab o‘zgartira olaman.

b – sinov va imtihonlarda muvaffaqiyatsizlik va xatolar ta’siri ostida «mag‘lubiyatchi» fikrlar va salbiy tasavvurlarga yo‘l qo‘ymayman;

v – imtihondagi tarang sharoitda men bilgan va qila oladigan narsalarga muvofiq tarzda o‘ylab harakat qila olaman.

11. O‘z hissiyotlarini boshqara bilish:

a – apatiya, o‘zini yo‘qotish, vahima va bezovtalik sharoitida o‘z emosional faolligimni oson ko‘tara olaman;

b – o‘zimning emosional hayajonimni engil pasaytira olaman (hayajonlanishda, og‘riqda, g‘azablanganda, mas’uliyat haqida ortiqcha tasavvurda);

v – sinf yoki imtihonda asarni muvaffaqiyatli ijro etsam, ortiqcha o‘z-o‘ziga ishonch, beparvolik va boshqalar ustidan soxta ustunlik namoyon etmayman.

12. O‘z harakatlarini nazorat qila bilish:

a – hatto charchash, asabiylashish, o‘zimdan qoniqmaslik hissi paydo bo‘lganda ham o‘z ijro harakatlarim ustidan nazoratni saqlab qola olaman;

